Ignaterapiya.

Tashqi faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxit formasi. Davolash printsipli: «shamol-sovuq» sindromida «sovuq» energiyasiga «tarqatuvchi» ta'sir qilinadi. «Shamol-issiq» sindromida «issiqni» yo'qotish va yo'talni to'xtatish kerak bo'ladi.

Ichki faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxit formasi. Davolash printsipli: «bo'shlik» sindromida o'pka energiyasini tonuslashtirish kerak bo'ladi. Taloq va o'pka «bo'shlik» sindromida nafas olishni engillashtirish, balg'amni kamaytirish, taloq funksiyasini aktivlashtirish, undagi «ho'llikni» kamaytirish kerak. Buyrakning energiyani akkumulyatsiya qilish xususiyati pasayganda uni «isitish» kerak bo'ladi. «Bo'shlik» sindromida IN energiyani kuchaytirish, o'pkani «oziqlantirish», balg'amni kamaytirish kerak.

Ta'sir nuqtalari:

Tashqi faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: 13 V, 1P, 17 VC, 7P, 14 VG.

Ichki faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: 13F, 43V, 36E, 4VG, 6RP.

Nuqtalar terapevtik effekti: 13V va 1P nuqtalarga ta'sir etilsa o'pka energiyasini normallashtirishga yordam beradi, 17VC –butun organizmning energiyasini tonusini oshiradi va ko'krak sohasidagi meridianlarda o'tkazuvchanlikni yaxshilaydi, 7P –organizm yuzasidagi patologik energiyani yo'qotadi, 14 VG-«YaN» meridianlardagi energiyani qo'zg'atish va patologik energiyaga qarshi kurashish uchun ishlatiladi. 43V va 36E-taloq va oshqozonning funksional faoliyatini va tana o'rta qismi energiyasini tonusini oshiradi. Kuydirishda 4VG-«isitish» va ichki organlar energiyasini to'ldirish uchun ishlatiladi. 6RP nuqtaga tonuslovchi ta'sir etganda IN-energiyani kuchaytiradi va IN «bo'shlik» sindromini davolaydi.

Aurikuloterapiya: Bronx, traxeya, o'pka, buyrak, taloq nuqtalariga har kuni yoki kunora ta'sir etiladi. Bir seansda 1-2 nuqtaga 30-60 minutgacha igna qo'yiladi.

Bronxialastma

Bronxial astma-infektsion allergik kasallik bo'lib, tez-tez bo'g'ilish xurujlari bilan harakterlanadi. Sharq tabobatida kasallik «bo'g'ilish xuruji» nomi bilan yuritiladi. Etiologiya va patogenezi. Bo'g'ilish xuruji qattiq (parenximatoz) ichki organlar - o'pka, taloq, buyrak bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki o'pka energiya uchun javobgar bo'lib, taloq «bo'shlig'i», «balg'am-xo'llik» sindromini keltirib chiqaradi, buyrak esa energiyani akkumulyatsiya qiladi. Ichki organlar «bo'shlig'i» patologik energiyani organizmga kirishi bilan birgalikda kelganda, noto'g'ri ovqatlanish, psixik labillik energiya va balg'amning to'xtatishiga olib keladi, bu o'pka energiyasini ko'tarilish va tushish qobiliyatini yo'qotadi va «bo'g'ilish xurujlari» yuzaga keladi. Nafas olish og'irlashib, o'ziga xos hushtaksimon harakterda bo'ladi, bemor og'iz orqali nafas oladi. Og'ir formalarida bemorning yuz sohasi ko'karib, ter bilan qoplanadi.

Simptomatikasi. Bronxial astmaning 2 formasi farqlanadi.

1. «Sovuq» sindromiga kiruvchi astmada - chanqash bo'lmaydi, varaja, ich ketish bo'ladi, oyoq-qo'llar sovuq, til ko'kimtir rangda, puls kuchlanishli, ingichka, sirpanuvchan.
2. «Issiq» sindromiga kiruvchi astmada - bemor issiqdan qochadi, salqin joyni qidiradi, asabiylashgan, ko'p terlaydi, chanqaydi, siydik kam, qizg'ish rangda bo'ladi, ich qotishi kuzatiladi, tili sarg'ish yoki sariq karash bilan qoplangan, puls sirpanuvchan, tez bo'ladi.

Ignaterapiya

«Sovuq» sindromiga kiruvchi astmada - davolash printsipi: o'pkani «isitish», «sovuq» sindromini, balg'am va xurujlarni yo'qotish.

«Issiq» sindromiga kiruvchi astmada - davolash printsipi: o'pkani «sovutish», «issiqlikni» tarqatish, balg'amni paydo bo'lishiga erishish va xurujlarni yo'qotish.

Keksa kishilarda «Olov-bo'shlik» sindromi bo'lganda buyrak sohasini isitish kerak. Taloqni «bo'shlig'ida», «balg'am-ho'llik» sindromida taloqni aktivlashtirish, «ho'llikni» yo'qotish, energiya tonusini oshirish, tanani 3 qismi meridianini o'rta qismini «isitish» kerak.

Ta'sir nuqtalari:

Xuruj vaqtida nafas olishni regulatsiya qiluvchi nuqtalar-AP31, 22VC, 1P, 11GI, 40E, 36E

Remissiya davrida qo'shimcha 13V, 20V, 23V nuqtalariga ta'sir etiladi.

Ta'sir uslubi: «sovuq» sindromidagi astmada alohida kuydirish yoki igna sanchish bilan kuydirish, «issiq» sindromidagi astmada faqat igna sanchish, to'g'ri ovqatlanish, dam olish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. «Sovuq» sindromidagi astmada 1P, 17VC, 13V, qo'shimcha 20V, 43V ga banka qo'yish tavsiya etiladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: AP31 nafas olishni regulatsiya qiluvchi nuqta hisoblanib, bu bronxial astma kasalligida maxsus ishlatiladi. R1 nuqtaga o'pka energiyasini tiklash va regulatsiya qilish uchun ta'sir etiladi. 22VC – balg'amni yo'qotib, o'pka energiyasini o'tkazuvchanligini yaxshilaydi, 40E va 36E balg'amni ketkazishda, yuqori ko'tarilgan energiyani pastga tushirishga yordam beradi.

Remissiya davrida 13V nuqtani 22VC va 1R nuqtalari bilan birgalikda qo'llanilishi o'pka energiyasini tiklaydi. 20V nuqtasiga 36E va 40E nuqtalar bilan birgalikda ta'sir etilsa energiya harakatini tiklaydi, balg'amni kamaytirib «ho'llikni» yo'qotadi. 23V nuqta 1R nuqta bilan birgalikda balg'amni kamayishiga, buyrakni «isishiga» va energiyani akkumulyatsiyasiga yordam beradi.

Aurikuloterapiya. Xuruj vaqtida astma, o'pka, simpatik nerv sistemasi, ichki sekretiya bezlari, taloq, oshqozon osti bezi, buyrak nuqtalariga intensiv ta'sir ko'rsatish tavsiya etiladi. Ignani 30 daqiqadan 60 daqiqagacha qoldirish mumkin.

Gipertoniya

Gipertoniya kasalligietiologyasiani qo'lmagan vabirvaqtnio'zidako'pkasalliklarsimptomatikasiga Asosiysimptomatikasiqonbosimini goshishidir.

(birlamchi)

(ikkilamchi) kiradigankasallikdir. Gipertoniya kasalligisharqtabobatida

«boshaylanish bilan kechadigan boshog'rig'iga», jigarining «shamol» sindromiga, YaN-jigarning buzilishiga kiradi.

Etiologiya va patogenezi. Ko'p hollarda gipertoniya jigar va buyrakning IN-YaN muvozanatini buzilishi natijasida yuzaga keladi. IN-jigarning «bo'shlik» sindromida YaN-jigar kuchayadi, bu holatni o'sishi natijasida IN-jigar sistemasi kuchsizlanib boradi. IN-jigar bo'shlig'ini IN-buyrak bo'shlig'i ham keltirib chiqaradi va IN-YaN muvozanati buziladi. Qon bosimini oshishiga psixik labillik, «balg'am-ho'llik», «balg'am-olov», «ichki shamol» sindromlari va qon dimlanishi sabab bo'lishi mumkin.

Simptomatikasi. Gipertoniya kasalligining 3 formasi tafovut qilinadi.

1. YaN-jigarning kuchayib ketishi: bosh og'rig'i, asabiylik, jizzakilik, bemor o'zini qo'yishga joy topolmaydi, yuzning giperemiyasi, ko'z qizarishi, og'izda quruqlik, ich qotishi, tilda sariq karash, puls kuchlanishli va tez.

2. IN bo'shlig'i va YaNning kuchayishi: bosh aylanishi, quloqlarda shovqin, sababsiz hayajon, uyqusizlik, oyoq-qo'llarda va tanada uvishish, tilda sarg'ish karash, puls kuchlanishli, ingichka va tez.

3. IN va YaN «bo'shlig'i»: bosh aylanishi, quloqda shovqin, oyoq-qo'llarda og'riq, uyqusizlik yoki qo'rqinchli tushlar ko'rish, yuzning ko'kimtiriligi, oyoq-qo'llar uvishishi, pollakiuriya, polinikturiya, patologik pollyutsiya, impotentsiya, tilda ko'kimtir karash, puls chuqur va ingichka.

Ignaterapiya.

Davolash printsiplari. YaN-jigar kuchayganda uni pasaytirib normallashtirish; IN-bo'shlig'i va YaN-kuchayishida – INni oziqlantirib, YaNni kuchsizlantirish; IN va YaN bo'shlig'ida – INni oziqlantirib, YaNga yordam berish kerak bo'ladi.

Ta'sir nuqtalari: 8E, 8VB, 20VB, 20VG, PC3.

Qo'shimcha: 2F, 18V, 3R, 4VC, 23V, 36E, 40E, 6VC, 7C, 6RP

Har bir seansda 4-5 nuqtaga ta'sir etish tavsiya etiladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: 20VB, 8VB, 8E, 20VG-energiyani tarqatish uchun ishlatiladi. Meridiandan tashqari nuqtalar (RS3 va RS9) patologik energiyani yo'qotadi, 2F nuqtaga tarqatuvchi ta'sir etganda jigar faoliyatini normallashtiradi. 18V nuqtaga tonuslovchi ta'sir (23V va 4VC bilan birgalikda) jigarni bo'shashtiradi, agar taqsimlovchi ta'sir etilsa jigar faoliyatini normallashtiradi. 36E nuqta oshqozon funksiyasini quVbatlaydi, tana uch qismi meridiani o'rta qismi energiyasini tonusini oshiradi, YaN-energiyani (23V va 6VS bilan birgalikda) kuchaytiradi yoki oshqozonni quVbatlab «ho'llik» ni yo'qotadi (40E bilan birga). 40E nuqtaga ta'sir balg'amni kamaytiradi, organizm suyuqliklaridagi loyqani yo'qotadi. 6VC nuqtaga ta'sir hayot energiyasini quVbatlaydi, 7S va 6RR-ruhiy tinchlikni tiklaydi.

Aurikuloterapiya. Qon bosimni pasaytiruvchi, buyrak usti bezi, po'stloq osti, AR –55, jigar, buyrak nuqtalariga ta'sir etiladi.

Stenokardiya

Stenokardiya Yurak mushaklarini trofikasini buzilishi natijasida Yurak sohasida xurujsimon og'riqni yuzaga kelishi bilan harakterlanadi. Sharq tabobatida stenokardiya «Yurak og'riqlari» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Og'riq xurujlari emotsional zo'riqishlarda yoki organizm soviganda, kuchli hayajon holatlarida yuzaga keladi. Bunda YaN–taloq «loyqa balg'amni» yuzaga keltiradi, YaN-Yurak aktivligi pasayishi qonning dimlanishiga olib keladi. Bu ikkalasi Yurak qon tomir sistemasi faolyatini va YaN-energiyani ko'krak sohasidagi sirkulyatsiyasini buzadi, o'z navbatida shu sohada og'riqni yuzaga keltiradi. Aytilgan o'zgarishlar bo'lganda ichki organlarga sovuq patologik energiya kirsam, bemor yuragida o'tkir kuchli og'riq bo'ladi.

Bemorlarda birdaniga bo'ladigan o'tkir, xurujsimon og'riq, qo'ltiq osti, elka, bo'yin, chap elka, chap qo'l ichki yuzasi bo'ylab kaftgacha berishi kuzatiladi. O'tkir og'riq bemorda qo'rquvni chaqiradi, u ko'kragini ushlab to'xtab qoladi. Og'riq asosan bir necha sekunddan bir necha minutgacha davom etadi va kamayib tez o'tib ketadi.

Simptomatikasi. Stenokardiyani 3 ta formasi tafovut qilinadi.

1. YaN-bo'shlig'i, «sovuqni ko'payishi» sindromi: ko'krakda vaqti-vaqti bilan bo'ladigan qisilish va siqilish hissiyoti, bezovtalik, nafas olishni susayishi, oyoq-qo'llarni sovishi, ishtaha pasayishi, ich ketishi kuzatiladi, til ko'kimtir oq karash bilan qoplanadi, puls chuqur, sekin, to'xtab qolgandek.
2. To'xtash, «loyqa balg'am» paydo bo'lish sindromi: ko'krak sohasida qisilish va siqilish, orqa sohaga beradigan og'riq, holsizlik, nafas olishni qiyinlashuvi, bosh aylanishi, balg'amli yo'tal, tilda qalin shilliq karash, puls sirpanuvchan.
3. Qon va energiyani dimlanish sindromi: ko'krak va Yurak sohasida o'tkir xanjarsimon og'riq, elka va orqa sohaga beradi, nafas olishni kuchsizlanishi, tilda kulrang karash, til qirralarida qontalash belgilari, puls chuqur va tekis emas yoki to'xtab qoluvchi.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: YaN-bo'shlig'i sindromida, sovuqni ko'pligida Yurakni tetiklashtirish uchun YaN-energiyani tonuslashtirish, olov holatida YaN-buyrakni tonuslash.

«Loyqa balg'amni» tug'ilishi sindromida energiya o'tkazuvchanligini tiklash, qon va energiya dimlanishida energiyani aktivlashtirish, qonni rag'batlantirish, meridianlar va tomirlarda o'tkazuvchanlikni tiklash kerak.

Ta'sir nuqtalari: 11VG, 44V, 11VC, 4MC, 6MC.

Qo'shimcha: 4VG, 36E, 40E.

Ta'sir usuli: xuruj vaqtida asosiy nuqtalarga ta'sir effekti bo'lguncha og'riqni olish uchun ta'sir etiladi. Bemor ko'krak sohasida engillik his qilguncha ta'sir etish kerak. Igna 30 minut qoldiriladi va har 10 minutda aylantirib turiladi. Xuruj oralig'ida muolaja ta'sir kuchi o'rtacha intensivlikda bo'lishi kerak.

Nuqtalar terapevtik effekti: Orqa sohadagi 15V, 11VG, 44V nuqtalarga ta'sir tana yoriqlarini ochadi, psixik muvozanatni tiklaydi, Yurakni tetiklashtiradi, meridianlarda o'tkazuvchanlikni tiklaydi. 11VC energiyani aktivlashtirib ko'krak sohasidagi og'irlik hissiyotini olish uchun ishlatiladi. 4MC va 6MC meridianlarda o'tkazuvchanlikni tiklash uchun ishlatiladi, ularga ta'sir Yurakdagi dimlanish holatini yo'qotadi. 4VG-YaN energiyani quVBatlab, butun organizmni tetiklashtiradi. 17V va 19V energiyani regulyatsiya qilib qonni oziqlantiradi. 36E tananing o'rta qismida energiyani quVBatlaydi, 11VC nuqta bilan birga ishlatilsa effekti yanada yuqori bo'ladi. 40E nuqta yuqori ko'tarilgan energiyani pastga tushirish va balg'amni kamaytirish uchun ishlatiladi.

Aurikuloterapiya: Yurak, AR-55, simpatik nerv sistemasi, XVI zona nuqtalariga ta'sir etiladi.

Epigastral sohada og'riq

Qorin bo'shlig'i organlari kasalliklarida asosiy simptom bu og'riq hisoblanadi.

Etiologiya va patogenezi. Oshqozon va taloq «bo'shlik-sovuqligi», oshqozon issiqligi, energiya o'tmasligi, ovqat o'tmasligi, balg'am-ho'llik, qon dimlanish hollari oshqozon sohasida og'riq kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu holat oshqozon funktsiyasining buzilishiga, energiyasining bir ko'tarilib, bir tushishiga olib keladi, natijada og'riq paydo bo'ladi.

Simptomatikasi. Buzilishlarning 2 ta formasi tafovut qilinadi.

Jigar energiyasining oshqozonga salbiy ta'siri natijasida og'riqning paydo bo'lishi: sababsiz hayajon, birdaniga jahlning chiqishi, oshqozon sohasida og'riq, qorin yuqori sohasida dam bo'lishi, achchiq yoki xavoli kekirish.

Oshqozon va taloqning «bo'shlik-sovuqlik» sindromi natijasida og'riqning paydo bo'lishi: qorin yuqori qismida to'mtoq og'riq, qusishda tiniq suyuqlik chiqishi, tez charchash, puls bo'sh, yuMChoq bo'lishi kuzatiladi.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari. Jigar energiyasining oshqozonga salbiy ta'siri natijasida og'riq paydo bo'lishida jigar va oshqozon funktsiyasini regulyatsiya qilish.

Ta'sir nuqtalari: 12VC, 14F, 6MC, 36E, 34VB nuqtalarga tarqatuvchi ta'sir etiladi.

Davolash printsipli. «Bo'shlik – sovuqlik» sindromi natijasida og'riq paydo bo'lishida oshqozon va taloqni isitish va tonuslash.

Ta'sir nuqtalari: 20 V, 21 V, 12 VC, 6 MC, 36 E, 13F nuqtalarga tonusni oshiruvchi ta'sir etiladi yoki kuydiriladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: 12VC nuqta oshqozon sohasidagi buzilishlarni davolash uchun, 36E va 6MC organizmda ovqat hazm qilish funktsiyasining buzilishlarini davolashda qo'llaniladi. 14V va 34 VB nuqtalar esa jigar energiyasi o'tkazuvchanligini tiklash maqsadida qo'llaniladi.

Aurikuloterapiya: oshqozon, jigar, simpatik nerv sitemasi, AP 55 nuqtalarigata'sir etiladi.

Quymich nerv nevrалgiyasi

Quymich nerv nevrалgiyasi - quymich nerv yo'li bo'ylab og'riq bilan harakterlanadigan sindrom hisoblanadi. Og'riq nerv yoki nerv tugunchalari zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Sharq tabobatida quymich nerv yallig'lanishi «Ichki» sindromga kiritilgan.

Etiologiya va patogenezi. Quymich nervi nevrалgiyasining kelib chiqishi kasallik keltirib chiqaruvchi «shamol», «sovuq», «shamol-issiqlik» yoki «namlik-issiqlik» kabi faktorlarning siydik va o't pufagi meridianlariga kirishi bilan bog'liq. Bundan tashqari kasallik yuqoridagi meridianlarda qon to'planib qolishi natijasida ham kelib chiqadi. Natijada siydik va o't pufagi meridianlarida energiya va qon sirkulyatsiyasi buziladi. Bu esa quyidagi qonunga asos bo'ladi: «o'tkazuvchanlik buzilgan joyda og'riq paydo bo'ladi», agar bu patologik holat uzoq davom etsa, jigar va buyraklarga ta'sir qiladi.

Simptomatikasi. Kasallikning 2 formasi tafovut qilinadi.

1. Egilganda bel sohasida meridian bo'ylab uzluksiz yoki xurujsimon og'riq - yo'talganda, aksirganda, uzoq vaqt piyoda yurganda og'riq kuchayadi va orqadan oyoqlarga qarab irradiatsiyalanadi. Og'riq harakteri-to'mtoq (sovuq-ho'llik sindromida) sanchuvchi yoki kesuvchi (qon to'planganda). Og'riqli nuqtalar sifatida 25V, 30VB, 36V, 40V, 57V, 60V, 34VB nuqtalari aniqlanadi. Boldir tashqi yuzasi va oyoq panjasi yuza sohalorida sezgi gipersensibilizatsiyalashgan yoki karaxtlik kuzatiladi. Bemor harakatlanishi qiyinlashgan, zararlangan nerv bo'ylab mushak taranglashgan bo'ladi. Bu taranglashish mushak harakatga kelgan vaqtda og'riqning paydo bo'lishi, oqibatda harakatning cheklanishi va passiv harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

2. Dumba sohasi va oyoqlarda gipotrofiya, tizza refleksi saqlangan holda axil refleksi pasaygan yoki yo'qolganligini ko'rish mumkin (jigar va buyraklarning bo'shlig'i sababli ular paylarni etarlicha bo'shashtira olmaydi). Oyoqlarda sovuq qotish yoki isish kuzatilishi mumkin.

Ignaterapiya

Davolash printsipli: o't va siydik pufagi meridianlari o'tkazuvchanli-gini tiklash uchun quyidagi nuqtalarga ta'sir etiladi 30VB, 36V, 40V, 57V, 60V, 34VB, 3F, 25V, 31VB.

Ta'sir etish usuli: har bir seansda 3-5 ta nuqtaga ta'sir etiladi. Har bir nuqtaga ta'sir etganda igna effekti bo'lishi kerak, ya'ni masalan 30 VB nuqtaga ta'sir qilinganda 40V nuqtaga irradiatsiya berishi kerak (pastga) va hokazo.

Nuqtalar terapevtik ta'siri: Yuqorida ko'rsatilgan nuqtalarga ta'sir meridianlarda energiyaing o'tkazuvchanligini me'yorlashtiradi, oyoq meridianlarida og'riqni kamaytiradi.

Aurikuloterapiya: quymich nervi, umurtqaning bel qismi, dumba, oyoq, buyrak usti bezi, AR55 nuqtalarga ta'sir etiladi.

III shoxli nerv nevrалgiyasi

Bu kasallik III shoxli nerv innervatsiyalovchi sohalarda keskin og'riq xuruji bilan harakterlanadi, sharq tabobatida u «zarar keltiruvchi shamoldan» yuzaga kelishi aytiladi va «bo'g'inlar yallig'lanishiga» kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. III shoxli nerv nevrалgiyasining kelib chiqishining asosiy sababi xastalik keltirib chiqaruvchi faktorlar «shamol va sovuq»ning 3 ta yuz sohasidan o'tuvchi YaN

meridianlarga kirishi yoki shu meridianlarga qon tuplanib qolishi bo'lib hisoblanadi. Bu esa shu sohadagi YaN meridianlarda bosimning oshishiga va energiya hamda qonning tuxtab qolishiga olib keladi. Boshka sabablar, jigar va oshqozonning «to'liqlik-issiqlik» sindromi, IN energiyasini «bo'shlig'i» ning yuqoriga, bosh va yo'zga intilishi.

Simptomatikasi. Yonuvchi og'riq xurujlari, buning oqibatida yuz mushaklarining igna sanchgani kabi qisqarishi, yuz terisi qizarishi, ko'z yoshi va so'lak ajralishi bilan birga kechadi. Xuruj davomiyligi 1-2 minut, kun davomida bir nechta xurujni kuzatish mumkin. Xuruj asosan yuz sohasidagi ba'zi og'riqli nuqtalarga tegishli joylarda paydo bo'ladi, bu nuqtalar 14VB, 2E, 20GI, 4E, 24VC.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: meridianlar faoliyatini faollashtirish va o'tkazuvchanligini tiklash.

Ta'sir nuqtalari: Yuqorida ko'rsatilgan nuqtalar va 17TR, 20VB, 4GI

Og'riqli nuqtalardan eng kuchlisiga igna bilan aylanma harakat qilib ta'sir qilinadi. Agar og'riq kamaymasa, unda boshqa bir og'riqli nuqtaga ta'sir etiladi. Igna bilan davolash har kun o'tkaziladi. Agar bu effektsiz bo'lsa, bunda ignaterapiya o'rniga teri ostiga 0,1 ml distillangan suv og'riqli nuqtaga yuboriladi.

Nuqtalar terapevtik ta'siri. Bu nuqtalarga ta'sir etish energiyai meridianlar bo'ylab harakatini tiklaydi. 17TR va 20VB nuqtalar shamol va sovuq ta'siridan yuzaga kelgan og'riqni yo'qotadi.

Aurikuloterapiya. Og'riqli nuqtalarga e'tibor beriladi, peshona, yuqori jag', pastki jag', simpatik nerv sistemasi, AR 55 nuqtalarga ta'sir etiladi.

Buyrak sanchig'i

Buyrak sanchig'i xuruji buyrakdan siydik yo'liga o'tayotgan kichik toshning qisilib qolishi natijasida paydo bo'lib, unda urodinamika buziladi. Xuruj odatda bir tomonlama bo'lib, ko'pincha erkaklarda uchraydi. Sharq tabobatida bu holat «buyrakdagi toshlar» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Ho'llik-issiqlik sindromi va siydik pufagi, hamda ingichka ichakda dimlanish uzoq vaqt davom etishi natijasida toshlar hosil bo'ladi. Bu esa energiya funksiyasining buzilishiga, siydik ajralishi buzilishiga va qorindan orqaga irradiatsiyalanuvchi o'tkir og'riqlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Simptomatikasi. Bel sohasiga va sonning ichki yuzasiga tarqaluvchi, qorinning pastki qismida to'satdan o'tkir xurujsimon kesuvchi harakterdagi og'riq bemorni bezovta qiladi. Bundan tashqari siydik yo'li bo'ylab o'tkir og'riq, diurezning buzilishi, yuzning oqarishi, ko'p ter ajralishi, ko'ngil aynishi yoki qusish, es-hushdan ketish holati ham kuzatilishi mumkin.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: Ho'llik-issiqlik sindromini yo'qotish, energiya o'tkazuvchanligini tiklash, og'riqni yo'qotish.

Ta'sir nuqtalari: 23V, 28V, 3VC, 10R nuqtalarga tarqatuvchi yoki energiyani tonuslovchi, yarim tarqatuvchi ta'sir qilinadi.

Nuqtalar terapevtik ta'siri: siydik pufagi mushaklari energiyasini regulyatsiyalash maqsadida qo'llaniladigan nuqta 28V, 3VC va 10R nuqtalariga birgalikda ta'sir qilish natijasida buyrak mushak energiyasi me'yorlashadi. Buyrak va siydik pufagi mushak energiyasi me'yorlashgandan keyin siydik o'tishi tiklanadi, siydik pufagida ho'llik-issiqlik sindromi yo'qoladi.

Aurikuloterapiya: Zararlangan organ-buyraklarga mos keluvchi zona nuqtalariga igna bilan ta'sir etish, aurikulyar nuqtalarga: siydik yo'li yoki buyrak (og'riqli nuqtalar bo'lmaganda), simpatik nerv sistemasi kiradi. Qo'shimcha ta'sir qilinadigan nuqtalar: siydik pufagi, ingichka ichak, ichki sekretiya bezlari.

Enurez va siydikni tuta bilmaslik

Kechquringi enurez - bu uyqu paytida ixtiyorsiz siyishdir. Siydikni tuta olmaslik esa, bolalar siydik aktini kunduzi tuta olmasligidir. Enurez asosan bolalarda uchraydi. Siydikni tuta

olmaslik esa keksalarda, og'ir bemorlarda kuzatiladi. Sharq tabobatida bu ikkala buzilish «siydikni tuta olmaslik» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Buyrak va tananing 3 qismi meridianlari pastki qismida energiya harakati sustlashishi va siydik pufagi qiskarishi xususiyatining buzilishi natijasida bu ikkala kasallik kelib chiqadi.

Simptomatikasi. Enurez kasalligida siydik tuta olmaslik bemorda kechasi 1-2 marta, ba'zan 3-4 martagacha kuzatilishi mumkin.

Ignaterapiya.

Davolash printsiplari: Buyrak va tana 3 qismi meridianlari energiyasini boshqarish va mustahkamlash.

Ta'sir nuqtalari: 28V, 3VC, 22V, qo'shimcha 23V, 4VG. Barcha nuqtalarga tonuslovchi ta'sir etiladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: 28V va 3VC nuqtalar siydik pufagi qiskarishini boshqaradi. 22V nuqta esa tana 3 qismi meridiani energiyasini kuchaytiradi. Bu 3 la nuqta siydik pufagi mushagi qisqarishini me'yorlashtirish uchun ham qo'llaniladi.

Aurikuloterapiya: siydik pufagi, tashqi jinsiy organlar, simpatik nerv sistemasi, AP55 nuqtalariga ta'sir kilinadi. Siydik tuta olmaslikda qo'shimcha buyrak, gipofiz (miya) nuqtalari ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.

2.Ovechkin A.M.Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416

3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.

4.Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.

5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.

6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g

7.X.N.Qayumov, Z.I.Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017 y

Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi

1-mavzu	Kirish. Ignaterapiyaning rivojlanishi, falsafiy kontsepsiyalari. O'pka va yo'g'on ichak meridianlari.
----------------	--

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti -160 daqiqa	Talabalar soni: 9 ta
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan o'tiladigan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Akupunkturalar uchun igna turlari va ta'sir usullari 2. Ignalarni muolajaga tayyorlash 3. Igna sanchish texnikasi, mahorati 4. Meridianlar haqida tushuncha
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Akupunkturalar uchun ignalar, ularni muolajaga tayyorlash, igna sanchish usuli, mahorati bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
- Pedagogik vazifalar: - Akupunktura nuqtalari va meridianlar haqida hozirgi zamon tasavvurlari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - igna turlari, ta'sir usullari va sterilizatsiyasi bilan tanishtirish. Amaliy ko'nikmalar: - Talabalar quyidagilarni bajara olishi kerak - igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	O'quv faoliyati natijalari: - Akupunktur nuqtalar, meridianlar haqida hozirgi zamon tasavvurlar mohiyatini tushuntirib beradi; - ignaning turlari va ta'sir usullari haqida to'liq ma'lumot beriladi; - igna sanchish texnikasi o'rgatiladi; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish usullari va bemorlarga qo'ya bilish mahorati ko'rsatiladi. - igna bilan davolashda mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsatishni o'rgatish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, interaktiv usulda kichik guruhlar bilan ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, proektor, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, test.

1.2. Kirish. Ignaterapiyaning rivojlanishi, falsafiy kontsepsiyalari. O'pka va yo'g'on ichak meridianlari mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	Faoliyat mazmuni		
	<table style="width: 100%;"> <tr> <td style="text-align: center;"><i>Ta'lim beruvchi</i></td><td style="text-align: center;"><i>Ta'lim oluvchilar</i></td></tr> </table>	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>		

Tayyorlov bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi kichik guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi (1- ilova). 4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2- ilova).	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Fanga kirish bosqichi: - Salomlashish; o'qituvchi o'zini tanishtirishi; guruh sardoridan guruhda nechta talaba tahsil olishini aniqlash va talabalar ro'yxatini jurnalga yozish; Talabalarning davomati va kiyinish odobi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tiladi. 1.2. Xalq tabobati fani sikli necha kun davom etishi, amaliy va mustaqil ish kalendar tematik rejasi yozdiriladi va ularga qisqacha ta'rif beriladi; adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi; 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.	Tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (30 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 2.2.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. - Mavzuning asosiy qismlarini doskaga yozib tushuntiradi. - Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savol-javob boshlanadi.(“Stol o'rtasida ruchka”). 2.4. Savol-javob tugagandan so'ng barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalanadi. Talabalar, ayniqsa, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. 2.5. Mavzuni mustahkamlash maqsadida test savollari va vaziyatli masalalar beriladi	Tinglaydilar Kichik guruhlariga bo'linadilar Faol qatnashadilar Savollarga javob beradilar

Klinik mashg'ulot (80 daqiqa)	- igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	Tinglaydilar Bajariladi
3- amaliy ko'nikmalarni bajarish va mashg'ulotni yakunlash bosqichi (40 daqiqa)	3.1. Amaliy ko'nikmalar bajariladi. 3.2. Amaliy va klinik mashg'ulot yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Talabalar umumiy baholanadi va mavzu to'liq o'zlashtirishi uchun uyga vazifa beriladi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

1 – ilova

“STOL O'RTASIDA RUCHKA” usuli

Bu usulda guruhga topshiriq beriladi. Talaba o'z variantini qog'ozga yozib, qo'shnisiga uzatadi, ruchkasini esa stol o'rtasiga qo'yadi. 10-15 daqiqa davomida guruh maksimal darajada o'zlarining javob variantlarini berishi kerak. Javobni bilmayidigan talaba esa qog'ozni yonidagi talabaga uzatib, ruchkani qo'lida ushlab qoladi. Bir variantni 2 marta yozish mumkin emas.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari va afzalliklari 1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang. 2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing. 3. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling. 4. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart. Afzalliklari: 1. mavzu birgalikda eshittirilib muhokama qilinadi 2. talabalar bilimi tekshiriladi 3. diskussiya ko'nikmasi oshiriladi 4. mashg'ulot o'yin sifatida o'tkaziladi 5. har bir talaba qatnashadi.
--

2- ilova

Ball	Baho	Talabaning bilim mezonlari
86-100	A'lo	Bugungi mavzu haqida xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritib, amalda qo'llay oladi. Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
71-85	Yaxshi	Mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritib biladi, olgan bilimlarini amalda qo'llay biladi, mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.

55-70	Qoniqarli	Mavzu mohiyatini tushinib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurga ega.
0-54	Qoniqarsiz	Mavzu haqida aniq tasavvurga ega emas. Mavzuni bilmaydi.

1 – amaliy mashg'ulot mavzusi bayoni


Mavzu: Kirish. Ignaterapiyaning rivojlanishi, falsafiy kontsepsiyalari. O'pka va yo'g'on ichak meridianlari.


Ignaterapiya bir necha asr ilgari paydo bo'lgan davolash usullaridan bir bo'lib, hozirgi vaqtgacha oldingi ahamiyatini va uslubini yuqotmagan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu usulga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, barcha tor mutaxassisliklar bo'yicha qo'llanilishi buning yaqqol dalilidir. Bu usulga e'tibor oshishining asosiy sabablari, birinchidan, davolashda farmakoterapiya foydalanilishining kamayishi yoki butunlay qo'llanilmasligi, ikkinchidan, hech qanaqa qo'shimcha nojo'ya ta'sirining yo'qligidir. Ignaterapiyaga bo'lgan qiziqishni oshib uni nafaqat nevrologiyada, balki terapiya va boshqa klinik sohalarda muvaffaqiyatli ishlatilayotganligigina emas, balkim oxirgi yillarda qo'shimcha diagnostik usul sifatida va xirurgik operatsiya vaqtlarida, tugish jarayonida, boshqa turli xil ogrik bilan kechadigan muolajalarda ogriksizlantirish maqsadida ishlatilishi hamdir.

Hozirgi vaqtda bizning davlatimizda akupunkturani rivojlantirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, barcha tibbiy oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga "Xalq tabobati" fani mustaqil fan sifatida kiritildi. Sharq tabobatini chuqur o'rganish maqsadida "Sharq tabobati" markazlari tashkil qilinmoqda.

Ignaterapiyaning hozirgi vaqtdagi texnikasi va uslubi xalq tabobatining an'anaviy tasavvurlariga asoslangan bo'lsada, uning yangi variantlari (elektroakupunktura, su-jok va b.) qo'llanilib, ilmiy asoslash borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qadimiy davolash usullaridan biri bo'lgan ignaterapiyani o'zlashtirishda qadimgi sharq ta'limotini tahlil qilib, hozirgacha mavjud bo'lgan jahon tajribasidan foydalanish asosiy o'rin tutadi.





Asboblar

Ignalar egiluvchanlik, zanglamaslik, elastik xususiyatlariga ega bo'lishi lozim. Shu sababli ignalar po'latdan, kumushdan, oltindan tayyorlanadi. Kumush va oltin yumshoqligi uchun toza holda emas,

qotishmalar ko'rinishida ishlatiladi. Kumush ignalar tarkibida 80 % sof kumush, oltin ignalar tarkibida 75 % gacha sof oltin bo'ladi. Ignalar quyidagi qismlardan tuzilgan: dastasi, asosi va uchi. Igna dastasi sanchish, kiritish, ayilantirish va chiqarib olishga qulayi bo'lishi zarur. Dasta spiralsimon o'ralgan va oxiri kichkina halqa bilan tugallangan (elektropunktura apparatini ulash uchun) bo'lib, qotishmadan tayyorlangan. Ba'zi ignalar dastasining uchida ozroq chuqurcha bo'lib, u erda cho'g'langan modda quyiladi. Dasta spiralsimon bo'lmasdan, balki dumaloq metall nayicha ko'rinishida ham bo'ladi. Dastani negizidan sinib qolish xavfi tufayli dasta va negiz bir-biri bilan bog'lanmayidi, balki bir butun metall simdan tayyorlanadi. To'qimalarni shikastlanmasligi va og'riq bo'lmasligi uchun igna uchi utmas bo'lishi shart. Ignalar harxil uzunlikda bo'ladi: 1,5 sm, 3 sm, 8 sm, 10 sm va 12-15 sm. Uzoq vaqt to'qimalarda ignalarni (24, 48, 72 soat va undan ko'p) qoldirish uchun CHju-Lyan' taklif etgan T-simon ignalar qo'llanilib teriga leyikoplastir yordamida yopishtirilib qo'yiladi. Bundan tashqari ichida kanali bor (0,45 mm) ignalar borki, shu kanallar orqali dori vositalari yuboriladi.

Ignalarni sterilizatsiyalash.

Ignalarni toza suvda 30 minut qayinatilib, so'ngra spirt bilan artiladi, shisha probirkada saqlanadi. Sterilizatsiya qilishdan oldin ignalar suvda yuvilib, 50 % li vodorod peroksidi eritmasiga 15 minut saqlanadi, so'ngra dokali tampon bilan artiladi. Aseptika qoidalariga rioya qilgan holda igna kiritiladigan joyi terisi dezinfektsiya qilinadi. Hakim muolajani o'tkazishdan oldin qo'lini va asbob materiallarini dezinfektsiya qilishi lozim.

Ignalarni sanchish usullari

- A-vertikal (teri yuzasiga nisbatan 90 gradus burchak ostida)
- B-yona (45-55 gradus burchak ostida)
- V-gorizontal (10-15 gradus burchak ostida)

Ignalarni sanchish uslublari.

1. Sekin ayılanma harakat bilan.
 - a) terini ushlamasdan

- b) terini ushlab turib
2. Tez va yuzaki sanchish usuli
 3. Avval sanchib, so'ngra ayılanma harakat bilan kiritish.

Sanchish chuqurligi teri osti yog' kletchatkasi va mushak holatiga, nuqtalarning joylashgan joyiiga, bemor konstitutsiyasiga, jinsiga, yoshiga va boshqalarga bog'liq. Bosh sohasida, quloq atrofiga, burun uchida, oyoq va qo'l barmoqlarida ignani chuqur sanchib kiritish mumkin emas. Igna kerakli chuqurlikka borganini bemor sezgisiga qarab aniqlanadi. Hayot uchun muhim bo'lgan a'zolar sohasida joylashgan nuqtalar (o'pka, yurak, aorta, katta tomirlar) qo'llanilganida va avvalo shu a'zolarida patologik buzilishlar bo'lgan hollarda igna sanchish juda ham ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak.

An'anaviy tabobatta'limotiga ko'ra meridianlar bu - «kanallar yoki yo'llar» bo'lib, qaysiki ulardan energiya sirkulyatsiyasi amalga oshadi. Umuman 12 ta juft, 2 ta toq asosiy, 15 ta bo'ylama va 12 ta ko'ndalang ikkilamchi kollateral va 8 ta ekstroordinar (mo'jizaviy) meridianlar mavjud.

Qadimiy sharq tibbiyoti ma'lumotiga ko'ra 12 ta asosiy meridianlar ikkita asosiy qismdan; tashqi va ichki yo'llardan iborat. Ular o'zaro uzviy bog'liq va bir butunliknitashqil qiladi. Bu meridianlar o'zini shaxsiy nuqtalariga ega bo'lib, ularning soni 9 tadan 67 gachani tashqil qiladi. Har bir meridian standart nuqtalarga ega bo'lib, qaysiki shu meridianga va qo'shni meridianga spetsifik ta'sir ko'rsatadi.

1) Tonus oshiruvchi nuqta (qo'zg'atuvchi). Bu nuqta o'z meridianining tashqi yo'lida joylashgan va shu meridianda energiya harakatini kuchaytiradi. Bu nuqtaga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatish tavsiya etiladi.

2) Tinchlantiruvchi nuqta. Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yo'lida joylashgan bo'ladi, meridianda energiya harakatini tormozlaydi, tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

3) Manba nuqta. Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yulida joylashgan, ta'sir usuliga ko'ra tonus oshiruvchi va tinchlantiruvchi nuqtalarni o'rnida ishlatilishi mumkin.

4) Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt). Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yulida joylashgan va juft, o'zaro kesishgan meridianlarda energiya muvozonatini tiklaydi.

5) Hamdard nuqta. Bu nuqtalar o'z meridianida joylashmagan, barchasi siydik pufagi meridianitashqi yulining birinchi tanasida joylashgan. Ta'sir usuliga ko'ra qo'zg'atuvchi yoki tinchlantiruvchi nuqta sifatida ishlatilishi mumkin.

6) Signal nuqta (mo-punkt). Bu nuqtalarning bir qismi o'z meridianining tashqi yulida, bir qism nuqtalar boshqa meridianlar-ning tashqi yo'lida joylashgan. Bu nuqtalar sohasida bo'ladigan og'riq, shu meridianga tegishli organni jarohatlanganidan dalolat beradi.

7) Og'riq qoldiruvchi nuqta. Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yulida joylashgan, meridian yo'li bo'ylab kuzatiladigan og'riqlarda ishlatiladi.

Ko'rilgan nuqtalardan tashqari meridianlarning, birinchi va oxirgi nuqtalari tafovut qilinadi. Ular meridian boshlanishida va tugash joylarida joylashgan bo'ladi.

Asosiy meridianlar

Belgilovchi raqamlar	Meridianlar nomi	
	O'zbekcha	Frantsuzcha qisqartirilgan belgisi
I	O'pka	P
II	Yo'g'on ichak	GI
III	Oshqozon	E
IV	Taloq-oshqozon osti bezi	RP
V	Yurak	C
VI	Ingichka ichak	IG

VII	Siydik pufagi	V
VIII	Buyrak	R
IX	Perikard	MC
X	Tanani uch isituvchi	TR
XI	O't pufagi	VB
XII	Jigar	F
XIII	Orqa o'rta	VG
XIV	Oldingi o'rta	VC

Ta'sirusullari

Ta'sir xarakteri, kuchliligi va davomiyligiga qarab igna sanchishning asosiy ikki usuli tafovut qilinadi: tormozlovchi va qo'zg'atuvchi. Bular har ikkisi ham ikki xil variantda (kuchli va kuchsiz) bo'ladi. Bu ikki uslub bir-biridan ta'sir xarakteri va kuchi, davomiyligiga ko'ra farq qilinadi.

Tormozlovchi usul. Tormozlovchi usulda asta-sekin kuchayuvchi, kuchli ta'sir qilinadi. Igna effekti asosan og'riqsiz va o'ziga xos sezgilar paydo bo'lishi (zirqirash, bosim, uvushib qolish, issiqlik, tok urishi va boshqalar) bilan xarakterlanadi. Bu sezgilar mahalliy bo'lmasdan, balki igna kiritilgan joydan ancha uzoqqa, proksimal yoki distal tarafda uzatilishi mumkin. Tormozlovchi usulning birinchi variantida igna asta-sekin aylanma harakat bilan ancha chuqurlikka (1-10 sm) kiritilib, to'qimada 30-60 minut vaqtga, ba'zi hollarda bir necha soatga qoldiriladi. Kuchli og'riqlar, spazmlar va tirishishlarda igna 24-48 soatgacha qoldiriladi. Bunda alohida T-simon ignalar yoki mikroignalar qo'llaniladi. Igna sanchiladigan nuqtalar 4-6 tagacha bo'ladi. Bu usul asosan o'rta va balog'at yoshidagilarga qo'llaniladi.

Tormozlovchi usulning ikkinchi variantida igna sekin aylanma harakat bilan kiritiladi. Ignaning kiritilish chuqurligi biroz kamroq bo'lib, sezgilar kuchi kamroq, ya'ni zirqiroq og'riq, engil bosim, tortishib og'rish bo'lmaydi. Ignalar to'qimalarda 15-20 minutgacha qoldiriladi, ta'sir qilish nuqtalar soni 4-6 tagacha, asosan keksalarda va astenik bemorlarda muolajadan oldin qo'rquv hissiyoti bo'lgani uchun tormozlovchi usulning ikkinchi varianti davolanish boshida qo'llaniladi. Davolash amaliyotida ba'zan tormozlovchi usulning oraliq varianti qo'llaniladi. Qo'zg'atish kuchi birinchi variantga va ikkinchi variantning davomiyligiga teng bo'ladi, qachonki ikkinchi variantning intensivligi birinchi variant davomiyligiga teng bo'lganda.

Qo'zg'atuvchi usul. Qo'zg'atuvchi ta'sir yuzaki, kuchli va qisqadir, ta'sir navbatma-navbat, ko'p vaqtlarda engil og'riq hissi va elektr toki urganday bo'lguncha beriladi. Qo'zg'atuvchi usulning birinchi variantida ta'sir asosan birta igna yordamida teriga va teri osti yog' qatlamiga yuzaki (0,3-0,6 sm) navbatma-navbat 8-10 ta nuqtalarga kiritiladi (10-15 sekunddan 1-2 minutgacha), igna to'qimaga qoldirilmaydi.

Qo'zg'atuvchi usulning ikkinchi variantida ta'sir 2-3 ta igna bilan navbatma-navbat 6-8 nuqtaga qisqa vaqt ichida (3-5 minut) qoldirilib va qayta punkturlash yo'li bilan ta'sir etiladi. Bu usul quyidagi hissiyotlar: kuchsiz og'riq, uvushish va elektr toki o'tishi bilan kechishi kerak. Ikkala variant ham kattalarda va bolalarda harakat, sezish va sekretor funktsiyalar pasayganda qo'llaniladi. Kollapsda, shok va hushdan ketganda tez yordam berishda yaxshi natija beradi.

Igna sanchish usulida davolash ishlarini olib bormoqchi bo'lgan vrachlar quyidagilarni o'zlashtirishi kerak:

1. Ignalarni terapevtik ta'sir mexanizmini.
2. Igna bilan davolashning asosiy qoidalarini.
3. Akupunktur nuqtalarga ta'sir usullarini.

4. Igna sanchish seanslarida bemorlar holatini va ta'sir dozasini.

5. Davo seansi davomiyligini.

6. Igna sanchishda bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarni va ularni bartaraf etishni.

Ignalarni terapevtik ta'sir mexanizmi an'anaviy tasavvurlarga ko'ra sirkulyatsiya qilayotgan energiya harakatini regulatsiya qilish va organizmdagi kasallik energiyasini siqib chiqarishdan iborat bo'ladi. In va Yan energiyalar nisbatini tiklash asosiy maqsad hisoblanadi. Barcha kasalliklarda ignaterapiya qanchalik barvaqt qo'llanilsa, shunchalik yuqori effekt olish mumkin. Igna sanchishni regulativ ta'siri bilan bir qatorda og'riqsizlantiruvchi ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Meridianlarda energiyani sirkulyatsiyasi buzilishi natijasida mahalliy qismlarda og'riq simptomi paydo bo'ladi. Og'riqli nuqtalarga igna sanchish energiya harakatini normallashtirishga va og'riqsizlanishiga olib keladi. Bunda og'riq qaerdan boshlanishiga, energiya harakati buzilgan meridiandagi sohani topish katta ahamiyatga ega.

Sharq tabobatining nazariy qontseptsiyalariga asosan kasalliklar o'zining namoyon bo'lishiga ko'ra bir qancha xususiyatlarga ega, bular:

- patologik jarayonning joylashganligiga ko'ra - tana yuzasida yoki chuqur, ichki organlarda;
- kasallik harakteriga ko'ra - sovuq yoki issiq, bo'shlik yoki to'lalik natijasida bo'lishi, yan yoki in kasallikka kirishi;

- kasallik bosqichiga ko'ra - boshlang'ich yoki surunkali formasi;

- bemor yoshiga ko'ra - bolalar yoki katta yoshdagilar kasalligi.

Igna sanchish usulini butun afzalliklarini ko'rsata olish uchun vrach ko'p asrlik amaliyotda aniqlangan igna sanchishni asosiy qoidalarini o'zlashtirishi kerak, bular:

1) Agar kasallik keltirib chiqaruvchi omil organizmga chuqur kirmagan bo'lsa, yuza sanchish qilinadi, chuqur kirgan bo'lsa igna chuqur sanchiladi.

2) Agar kasallik sovuq faktor ta'siridan kelib chiqqan bo'lsa, u chuqur joylashgan bo'ladi, bunda ignani chuqur sanchib igna effektiga erishish kerak bo'ladi.

3) Agar kasallik issiq faktor ta'siridan kelib chiqqan bo'lsa, kasallik yuzada bo'ladi va igna yuzaki sanchilib, uzoq qo'yilmaydi.

4) Agar kasallik bo'shlik hisobidan bo'lsa, igna bilan quvvatlovchi (tonuslovchi) ta'sir ko'rsatish kerak. Aksincha kasallik to'lalik hisobidan bo'lsa igna bilan taqsimlovchi (tinchlantiruvchi) ta'sir ko'rsatiladi.

5) Kasallik «in» holatiniki bo'lsa igna chuqur sanchiladi, «yan» holatiniki bo'lsa, yuzaki sanchiladi.

6) Agar kasallik surunkali bo'lsa, meridianlarda dimlanish ko'rinishi bo'ladi, demak kasallik keltirib chiqaruvchi energiya meridianga kirgan. Bunda igna sanchishda qon chiqarish tavsiya etiladi, energiyani haydash, og'riqni olish, zararli omilni yo'qotish kerak bo'ladi.

7) Agar bemor baquvvat, terisi va musqo'llari elastik bo'lsa igna chuqur sanchiladi va ma'lum bir vaqtga qoldiriladi. Aksincha bemor oriq, holsiz bo'lsa igna yuzaki sanchilib, uzoq qo'yilmaydi. Bolani davolashda igna ingichka bo'lishi, ta'sir vaqti kam bo'lishi kerak.

Nuqtalarni qo'llashning qanchalik yaxshi usulini vrach ishlatga, shunchalik ta'siri yaxshi natija beradi. Bu uchun vrach quyidagi 3 ta asosiy printsiplarni egallashi kerak bo'ladi:

A. Har xil nuqtalarni qo'llashga ko'rsatmalar:

- Oyoq va qo'llardagi 5 antik nuqtalar, ular asosan ichki organ kasalliklarida qo'llaniladi.

- Manba nuqtalar 5 parenximatoz va 6 bo'shlik organlar kasalliklarida qo'llaniladi.

- Mo'tadillovchi nuqtalar juft meridianlarda bog'liqliklar buzilishida ishlatiladi.

- Kovak nuqta ichki organlarning o'tkir kasalliklarida ishlatiladi.

- 8 mo'jizaviy meridianlar nuqtalari og'ir surunkali kasalliklarda ishlatiladi.

- Hamdard nuqtalar qo'shimcha sifatida tegishli ichki organ kasalliklarida qo'llaniladi.

- Og'riqsizlantiruvchi nuqtalar meridian yo'llari bo'ylab og'riq bo'lganda ishlatiladi.

- 8 ta bog'liq nuqta, har qaysi ma'lum organlar kasalliklarida yaxshi effekt beradi.

- Spetsifik ko'rsatmasi bo'lgan nuqtalar ko'rsatmasiga ko'ra ishlatiladi.

B. Nuqtalarni tanlash printsiplari:

1. Agar kasallik o'zining joylashishiga ko'ra bir yoki bir necha meridian yo'li sohasida bo'lsa, meridian printsiplari tanlanadi.

2. Simptomatik printsiplari - kasallik simptomlari umumiy harakterga ega bo'lganda nuqtalar ko'rsatmalarga ko'ra tanlab olinadi.

3. Yuqoridagi ikki printsiplari birgalikda ishlatish.

Meridian printsiplari nuqtalari tanlash asosiy bo'lgani uchun vrach unga katta e'tibor berishi kerak. Bu printsiplari 3 turi tafovut qilinadi:

- 1) patologik jarayon joylashgan tana qismidan o'tgan meridian mahalliy nuqtalari.
- 2) patologik jarayon joylashgan joy yaqin atrofida kesib o'tgan meridian nuqtalari.
- 3) patologik jarayon joylashgan joydan kesib o'tadigan meridianning periferik nuqtalari.

V. Nuqtalari birgalikda tanlab olish printsiplari:

- Meridian nuqtalari birgalikda olish, bu printsiplari meridianlardan kelib chiqqan holda nuqtalari tanlashga asoslangan:

- Hamdard nuqtalar bilan signal nuqtalari birgalikda olish:

- O'zgarish bo'lgan meridianning 5 element nuqtalari birgalikda olish:

- Yoriq nuqtalari parenximatoz va bo'shlik organlari 8 ta bog'liq nuqtalari bilan birgalikda olish:

Ignaterapiyada bemor holati, ta'sir dozasi

Seans vaqtida bemorning holati unga qanday darajada ta'sir ko'rsatilishiga, nuqtalar joylashgan tana qismiga, ko'p vaqt bir holatda turishini e'tiborga olgan holda belgilanadi.

Ta'sirning 3 darajasi tafovut qilinadi:

- tarqatuvchi (kuchli)

- quvvatlovchi (engil)

- yarim taqsimlovchi (o'rta)

Bularning barchasida albatta «igna effekti» ga erishish zarur bo'ladi. Ta'sir dozasi esa quyidagilarga bog'liq holda belgilanadi:

-«to'lalilik» sindromida - ignani kuchli aylantirish va to'qimada qoldirib, har 5-10 daqiqada aylantirish, ignani tez sug'urib olib, teshikni yopmaslik;

-«bo'shlik» sindromida - ignani engil suqish, sekin aylantirish, ignani sekin aylantirib sug'urish va teshikni yopish;

-«to'liq ham bo'shlik ham bo'lmagan» sindromida - igna o'rta intensivlik bilan sanchiladi, sug'urish ham o'rta intensivlikda bo'ladi.

Ignaterapiya davomiyligi kasallik harakteriga bog'liq bo'ladi. Agar o'tkir og'riqli kasallik bo'lsa ignaterapiya effekti tez namoyon bo'ladi. Bir kunda 1-2 seans o'tkazish mumkin. Surunkali kasalliklarda ta'sir kursi 10-15 seansgacha davom ettiriladi va yana takrorlanishi mumkin.

Ignaterapiyada mumkin bo'lgan asoratlar:

- ignalari to'qimalarda qisilib qolishi;

- ignaning egri bo'lishi;

- ignaning sinishi;

- akupunktur shok;

- ichki organlar shikastlanishi;

- katta qon tomirlar shikastlanishi;

- teri ostiga gematoma yuzaga kelishi;

- ignani nerv tolasiga ta'siri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.

2.Ovechkin A.M.Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416

3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.

4.Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva:

«Meditsina», 1980 g.

5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.

6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g

7.X.N.Qayumov, Z.I.Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017 y.

Vaziyatli masalalar

1. Bemorga chjen-szyu terapiyasi belgilandi. Ushbu usul nimani anglatadi?

Javob: chjen – ukol, szyu – kuydirish. Usul tananing ma'lum nuqtasiga ukol qilish va kuydirish bilan yakunlanadi.

2. Igna sanchishda biz yuza va chuqur retseptorlarni ta'sirlantiramiz. Shu retseptorlarga ta'sir berish.

Javob: Teri yuzasi retseptorlari faqat differentsirlangan apparat hisoblanadi, ularning ta'sirlanishi, xususan qobiq fiksatsiyasi turi bo'yicha boshlang'ich «ishga solish» ahamiyatiga ega. Chuqur retseptorlar diffuz hisoblanadi, o'z xarakteri bo'yicha inertli va ichki a'zolar holatiga ancha samarali ta'sir ko'rsatadi.

3. Igna bilan davolashda biz ko'pincha «ona-o'g'il» qoidasini qo'llaymiz. Bu nimani bildiradi ?

Javob: «Ona-o'g'il» qoidasi uchta dastlabki elementda ko'rib chiqiladi (yoki ularga tegishli meridianlarda): asosiy elementga munosabat bo'yicha buzilgan quvvat bilan unga avvalgi dastlabki element aloqani stimullovchi siklida «ona», keyingisida esa – «o'g'il» deb nomlanadi.

4. Kasalliklarni davolashda ko'pincha quyidagi nuqtalar qo'llanadi: meridian, meridiandan tashqari «yangi nuqtalar va aurikulyar. Juft va juft bo'lmagan meridianlar miqdorini sanab bering.

Javob: Ja'mi 14 klassik meridianlar: shulardan 12 tasi juft va 2 tasi toq meridianlar

5. Qovdan kindikgacha necha sun?

Javob:Refleksoterapiya nuqtalarini topish uchun biz tana qismlarini standart miqdorda proporsional bo'lakka (sunlar) bo'lishdan foydalanamiz - 5sun

6. Akupunkturada oltin va kumush ignalar qo'llaniladi ? Bu ignalar qaysi qotishmalardan tayyorlanadi ?

Javob: Oltin igna: toza oltin – 75%, igna: toza kumush – 80%, qizil mis – 17%, tozalangan mis – 3%

7. Neyrogumoral mexanizm asosi va bosqichlarini sanab bering?

Javob: Maxalliy, segmentar, serebral bosqichlari bor

8.Nuqtalar tasnifiga va nomlanishishiga misol keltiring va mulyajda ko'rsatib bering.

Javob:1500 ta korporal va 200 ta aurikulyar, fransuz indeksi xalqaro raqam va xitoycha nom

9.Sharq va g'arb tibbiyoti farqini ayting va misollar bilan

Javob:12 ta kriteriysi mavjud

10. Qanshar ustidan ensa bo'rtig'ining yuqori chetigacha qalqonsimon o'simtadan kindikkacha nechta sun ?

Javob:Refleksoterapiya nuqtalarini topish uchun biz tana qismlarini standart miqdorda proporsional bo'lakka (sunlar) bo'lishdan foydalanamiz - 9 sun

2-mavzu		Gipertoniya va stenokardiya kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi.
2.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli		
Mashg'ulot vaqti -160 daqiqa	Talabalar soni: 9 ta	
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan o'tiladigan amaliy mashg'ulot	
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Gipertoniya kasalligida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi. 2. Stenokardiya kasalligida igna refleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Gipertoniya va stenokardiya kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi, nuqtalarga ta'sir usullari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.		
- Pedagogik vazifalar: - gipertoniya va stenokardiya kasalliklarida ta'sir usullarini yoritib berish - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar bilan tanishtirish - Igna sanchish uslublarini ko'rsatish. Amaliy ko'nikmalar: - Talabalar quyidagilarni bajara olishi kerak - igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.		O'quv faoliyati natijalari: - gipertoniya va stenokardiya kasalliklarida biologik faol nuqtalarga ta'sir usullari haqida to'liq ma'lumot beriladi; - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar r mohiyatini tushuntirib beradi; - igna sanchish texnikasi o'rgatiladi; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish usullari va bemorlarga qo'ya bilish mahorati ko'rsatiladi. -igna bilan davolashda mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsatishni o'rgatish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov	
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, interaktiv usulda kichik guruhlar bilan ishlash	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, proektor, kompyuter	
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya	
Monitoring va baholash	Og'zaki savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, test.	

2.2. Gipertoniya va stenokardiya kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>

Tayyorlov bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi kichik guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi (1- ilova). 4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2- ilova).	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mavzuga kirish bosqichi: - Salomlashish; guruh sardoridan davomat so'raladi. 1.2. Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi; 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi. 1.4. O'tilgan mavzu bo'yicha Bilim daraxti, tezkor savol javob asosida mavzu mustahkamlanadi va bugungi mavzu yoritib beriladi.	Tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (30 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 2.2.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. - Mavzuning asosiy qismlarini doskaga yozib tushuntiradi. - Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savol-javob boshlanadi. ("Aqliy hujum"). 2.4. Savol-javob tugagandan so'ng barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalanadi. Talabalar, ayniqsa, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. 2.5. Mavzuni mustahkamlash maqsadida vaziyatli masalalar va test savollari beriladi	Tinglaydilar Kichik guruhlariga bo'linadilar Faol qatnashadilar
Klinik mashg'ulot (80 daqiqa)	- igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	Tinglaydilar Bajariladi
3- amaliy ko'nikmalarni	3.1. Amaliy ko'nikmalar bajariladi. 3.2. Amaliy va klinik mashg'ulot yuzasidan xulosa	Savollar beradilar.

bajarish va mashg'ulotni yakunlash bosqichi (40 daqiqa)	bildiradi. 3.2. Talabalar umumiy baholanadi va mavzu to'liq o'zlashtirishi uchun uyga vazifa beriladi. Mustaqil ish mavzusi taqdim etiladi.	Vazifani yozib oladilar.
---	--	--------------------------

1 – ilova

“Aqliy hujum”

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan usuldir. Bu haqiqatdan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi usuldir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzuni yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin; masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Usulni ishlatishga kirishmoq...1-usul guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo'yiladi.

1. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'lga shunday tarzda oladi: U auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.

2. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

2-usul: barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga taqdim etiladi.

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha, balki 4- 6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhlariga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum uyushtiriladi yoki alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G'oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shundan sahifa - plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo'yiladi. Sahifa - plakat jarayonning oxirida har bir xoxlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rishi uchun osib qo'yiladi.

5. Aqliy hujumning bu usuli vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo'lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O'qituvchi yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy hujum amalga oshirilayotgan paytida o'tib turadi. Muhim g'oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo'lishi va muammolarda muhokama etilgan bo'lishi kerak. Ko'pgina muhim g'oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog'ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez-tez yuzaga kelib turadi. Ya'ni nomigagina kichik korxona yaratish kabi.

Yakuniy xulosaga kelish, ayniqsa, qiyin. Bu tabiiy, chunki har bir ishtirok etuvchiga "o'zimning g'oyam eng yaxshi" degan xususiyat xosdir. Umumiy pozitsiya, har qalay, tezda topiladi va bunda quyidagi usul yordamga kelishi mumkin.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari va afzalliklari

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
 2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
 3. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
 1. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.
- Afzalliklari:
- mavzu birgalikda eshittirilib muhokama qilinadi
 - talabalar bilimi tekshiriladi
 - diskussiya ko'nikmasi oshiriladi
 - mashg'ulot o'yin sifatida o'tkaziladi
 - har bir talaba qatnashadi.

2- ilova

Ball	Baho	Talabaning bilim mezonlari
86-100	A'lo	Bugungi mavzu haqida xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritib, amalda qo'llay oladi. Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
71-85	Yaxshi	Mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritib biladi, olgan bilimlarini amalda qo'llay biladi, mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
55-70	Qoniqarli	Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurga ega.
0-54	Qoniqarsiz	Mavzu haqida aniq tasavvurga ega emas. Mavzuni bilmaydi.

2 – amaliy mashg'ulot mavzusi bayoni

Mavzu: Gipertoniya kasalligi va stenokardiyada IRT nuqtalari topografiyasi.

Gipertoniya

Gipertoniya kasalligi etiologiyasi aniq bo'lmagan (birlamchi) va bir vaqtni o'zida ko'p kasalliklar simptomatikasiga (ikkilamchi) kiradigan kasallikdir. Asosiy simptomatikasi qon bosimining oshishidir. Gipertoniya kasalligi sharq tabobatida «bosh aylanishi bilan kechadigan bosh og'rig'iga», jigarning «shamol» sindromiga, YaN-jigarning buzilishiga kiradi.

Etiologiya va patogenezi. Ko'p hollarda gipertoniya jigar va buyrakning IN-YaN muvozanatini buzilishi natijasida yuzaga keladi. IN-jigarning «bo'shlik» sindromida YaN-jigar kuchayadi, bu holatni o'sishi natijasida IN-jigar sistemasi kuchsizlanib boradi. IN-jigar bo'shlig'ini IN-buyrak bo'shlig'i ham keltirib chiqaradi va IN-YaN muvozanati buziladi. Qon bosimini oshishiga psixik labillik, «balg'am-ho'llik», «balg'am-olov», «ichki shamol» sindromlari va qon dimlanishi sabab bo'lishi mumkin.

Simptomatikasi. Gipertoniya kasalligining 3 formasi tafovut qilinadi.

1. YaN-jigarning kuchayib ketishi: bosh og'rig'i, asabiylik, jizzakilik, bemor o'zini qo'yishga joy topolmaydi, yuzning giperemiyasi, ko'z qizarishi, og'izda quruqlik, ich qotishi, tilda sariq karash, puls kuchlanishli va tez.
2. IN bo'shlig'i va YaNning kuchayishi: bosh aylanishi, quloqlarda shovqin, sababsiz hayajon, uyqusizlik, oyoq-qo'llarda va tanada uvishish, tilda sarg'ish karash, puls kuchlanishli, ingichka va tez.

3. IN va YaN «bo'shlig'i»: bosh aylanishi, quloqda shovqin, oyoq-qo'llarda og'riq, uyqusizlik yoki qo'rqinchli tushlar ko'rish, yuzning ko'kimtiriligi, oyoq-qo'llar uvishishi, pollakiuriya, polinikturiya, patologik pollyutsiya, impotentsiya, tilda ko'kimtir karash, puls chuqur va ingichka.

Ignaterapiya.

Davolash printsiplari. YaN-jigar kuchayganda uni pasaytirib normallashtirish; IN-bo'shlig'i va YaN-kuchayishida – INni oziqlantirib, YaNni kuchsizlantirish; IN va YaN bo'shlig'ida – INni oziqlantirib, YaNga yordam berish kerak bo'ladi.

Ta'sir nuqtalari: 8E, 8VB, 20VB, 20VG, PC3.

Qo'shimcha: 2F, 18V, 3R, 4VC, 23V, 36E, 40E, 6VC, 7C, 6RP

Har bir seansda 4-5 nuqtaga ta'sir etish tavsiya etiladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: 20VB, 8VB, 8E, 20VG-energiyani tarqatish uchun ishlatiladi. Meridiandan tashqari nuqtalar (RS3 va RS9) patologik energiyani yo'qotadi, 2F nuqtaga tarqatuvchi ta'sir etganda jigar faoliyatini normallashtiradi. 18V nuqtaga tonuslovchi ta'sir (23V va 4VC bilan birgalikda) jigarni bo'shashtiradi, agar taqsimlovchi ta'sir etilsa jigar faoliyatini normallashtiradi. 36E nuqta oshqozon funksiyasini quVbatlaydi, tana uch qismi meridiani o'rta qismi energiyasini tonusini oshiradi, YaN-energiyani (23V va 6VS bilan birgalikda) kuchaytiradi yoki oshqozonni quVbatlab «ho'llik» ni yo'qotadi (40E bilan birga). 40E nuqtaga ta'sir balg'amni kamaytiradi, organizm suyuqliklaridagi loyqani yo'qotadi. 6VC nuqtaga ta'sir hayot energiyasini quVbatlaydi, 7S va 6RR-ruhiy tinchlikni tiklaydi.

Aurikuloterapiya. Qon bosimni pasaytiruvchi, buyrak usti bezi, po'stloq osti, AR –55, jigar, buyrak nuqtalariga ta'sir etiladi.

Stenokardiya

Stenokardiya Yurak mushaklarini trofikasini buzilishi natijasida Yurak sohasida xurujsimon og'riqni yuzaga kelishi bilan harakterlanadi. Sharq tabobatida stenokardiya «Yurak og'riqlari» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Og'riq xurujlari emotsional zo'riqishlarda yoki organizm soviganda, kuchli hayajon holatlarida yuzaga keladi. Bunda YaN–taloq «loyqa balg'amni» yuzaga keltiradi, YaN-Yurak aktivligi pasayishi qonning dimlanishiga olib keladi. Bu ikkalasi Yurak qon tomir sistemasi faolyatini va YaN-energiyani ko'krak sohasidagi sirkulyatsiyasini buzadi, o'z navbatida shu sohada og'riqni yuzaga keltiradi. Aytilgan o'zgarishlar bo'lganda ichki organlarga sovuq patologik energiya kirsas, bemor yuragida o'tkir kuchli og'riq bo'ladi.

Bemorlarda birdaniga bo'ladigan o'tkir, xurujsimon og'riq, qo'ltiq osti, elka, bo'yin, chap elka, chap qo'l ichki yuzasi bo'ylab kaftgacha berishi kuzatiladi. O'tkir og'riq bemorda qo'rquvni chaqiradi, u ko'kragini ushlab to'xtab qoladi. Og'riq asosan bir necha sekunddan bir necha minutgacha davom etadi va kamayib tez o'tib ketadi.

Simptomatikasi. Stenokardiyaning 3 ta formasi tafovut qilinadi.

1. YaN-bo'shlig'i, «sovuqni ko'payishi» sindromi: ko'krakda vaqti-vaqti bilan bo'ladigan qisilish va siqilish hissiyoti, bezovtalik, nafas olishni susayishi, oyoq-qo'llarni sovishi, ishtaha pasayishi, ich ketishi kuzatiladi, til ko'kimtir oq karash bilan qoplanadi, puls chuqur, sekin, to'xtab qolgandek.

2. To'xtash, «loyqa balg'am» paydo bo'lish sindromi: ko'krak sohasida qisilish va siqilish, orqa sohaga beradigan og'riq, holsizlik, nafas olishni qiyinlashuvi, bosh aylanishi, balg'amli yo'tal, tilda qalin shilliq karash, puls sirpanuvchan.

3. Qon va energiyani dimlanish sindromi: ko'krak va Yurak sohasida o'tkir xanjarsimon og'riq, elka va orqa sohaga beradi, nafas olishni kuchsizlanishi, tilda kulrang karash, til qirralarida qontalash belgilari, puls chuqur va tekis emas yoki to'xtab qoluvchi.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: YaN-bo'shlig'i sindromida, sovuqni ko'pligida Yurakni tetiklashtirish uchun YaN-energiyani tonuslashtirish, olov holatida YaN-buyrakni tonuslash.

«Loyqa balg'amni» tug'ilishi sindromida energiya o'tkazuvchanligini tiklash, qon va energiya dimlanishida energiyani aktivlashtirish, qonni rag'batlantirish, meridianlar va tomirlarda o'tkazuvchanlikni tiklash kerak.

Ta'sir nuqtalari: 11VG, 44V, 11VC, 4MC, 6MC.

Qo'shimcha: 4VG, 36E, 40E.

Ta'sir usuli: xuruj vaqtida asosiy nuqtalarga ta'sir effekti bo'lguncha og'riqni olish uchun ta'sir etiladi. Bemor ko'krak sohasida engillik his qilguncha ta'sir etish kerak. Igna 30 minut qoldiriladi va har 10 minutda aylantirib turiladi. Xuruj oralig'ida muolaja ta'sir kuchi o'rtacha intensivlikda bo'lishi kerak.

Nuqtalar terapevtik effekti: Orqa sohadagi 15V, 11VG, 44V nuqtalarga ta'sir tana yoriqlarini ochadi, psixik muvozanatni tiklaydi, Yurakni tetiklashtiradi, meridianlarda o'tkazuvchanlikni tiklaydi. 11VC energiyani aktivlashtirib ko'krak sohasidagi og'irlik hissiyatini olish uchun ishlatiladi. 4MC va 6MC meridianlarda o'tkazuvchanlikni tiklash uchun ishlatiladi, ularga ta'sir Yurakdagi dimlanish holatini yo'qotadi. 4VG-YaN energiyani quVBatlab, butun organizmni tetiklashtiradi. 17V va 19V energiyani regulatsiya qilib qonni oziqlantiradi. 36E tananing o'rta qismida energiyani quVBatlaydi, 11VC nuqta bilan birga ishlatilsa effekti yanada yuqori bo'ladi. 40E nuqta yuqori ko'tarilgan energiyani pastga tushirish va balg'amni kamaytirish uchun ishlatiladi.

Aurikuloterapiya: Yurak, AR-55, simpatik nerv sistemasi, XVI zona nuqtalariga ta'sir etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.
2. Ovechkin A.M. Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416
3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.
4. Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
7. X.N. Qayumov, Z.I. Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017 y.

3-mavzu	Bronxial astma va bronxitlarda igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi.
3.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg'ulot vaqti -160 daqiqa	Talabalar soni: 9 ta
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan o'tiladigan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Bronxial astma kasalligida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi. 2. Bronxitlarda igna refleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi.

<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Bronxial astma va bronxitlarda ignarefleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi, nuqtalarga ta'sir usullari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
- Pedagogik vazifalar: - bronxit va bronxial astma kasalliklarida ta'sir usullarini yoritib berish - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlarni bilan tanishtirish - Igna sanchish uslublarini ko'rsatish. Amaliy ko'nikmalar: - Talabalar quyidagilarni bajara olishi kerak - igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	O'quv faoliyati natijalari: - bronxit va bronxial astma kasalliklarida biologik faol nuqtalarga ta'sir usullari haqida to'liq ma'lumot beriladi; - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlarni mohiyatini tushuntirib beradi; - igna sanchish texnikasi o'rgatiladi; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish usullari va bemorlarga qo'ya bilish mahorati ko'rsatiladi. -igna bilan davolashda mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsatishni o'rgatish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, interaktiv usulda kichik guruhlar bilan ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, proektor, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, test.

3.2. Bronxial astma va bronxitlarda igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorlov bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi kichik guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi (1- ilova). 4. Talabalar o'quv	

	faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2- ilova).	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.2. Mavzuga kirish bosqichi: - Salomlashish; guruh sardoridan davomat so'raladi. 1.2. Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi; 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi. 1.4. O'tilgan mavzu bo'yicha Bilim daraxti, tezkor savol javob asosida mavzu mustahkamlanadi va bugungi mavzu yoritib beriladi.	Tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (30 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 2.2.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. - Mavzuning asosiy qismlarini doskaga yozib tushuntiradi. - Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savol-javob boshlanadi. (“Uch bosqichli interv'yu”). 2.4. Savol-javob tugagandan so'ng barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalanadi. Talabalar, ayniqsa, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi.	Tinglaydilar Kichik guruhlarga bo'linadilar Faol qatnashadilar

	2.5. Mavzuni mustahkamlash maqsadida vaziyatli masalalar va test savollari beriladi	
Klinik mashg'ulot (80 daqiqa)	- igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	Tinglaydilar Bajariladi
3- amaliy ko'nikmalarnibajarishvamasg'ulotniyakunlashbo'sqichi (40 daqiqa)	3.1. Amaliy ko'nikmalar bajariladi. 3.2. Amaliy va klinik mashg'ulot yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Talabalar umumiy baholanadi va mavzu to'liq o'zlashtirishi uchun uyga vazifa beriladi. Mustaqil ish mavzusi taqdim etiladi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

1 – ilova

“Uch bosqichli interv'yu” uslubi

Maqsad: Bemorning muammolarini aniqlash va hal qilishda unga to'g'ri psixologik yondashishni o'rgatish.

Asosiy tamoyillari: Guruh 2-3 ta kichik guruhchalarga bo'linadi va talabalarga rol bo'lib beriladi: shifokor, bemor, ekspert. Bemor rolini ijro etayotgan talabaga tashxis yashirin etkaziladi. Bemor kasallik shikoyatlari, kasallikning rivojlanishi, vrach esa bemor bilganlar va unda kasallik tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni mukammal bilishi shart. Har bir vrach bemor bilan maslahatni 10-15 daqiqa mobaynida olib boradi. Ekspert ishtirokchilar (bemor va vrach) faoliyatini quyidagi 3 bo'lim bo'yicha baholaydi:

1.Nima to'g'ri qilindi?

- 2.Nima noto'g'ri qilindi?
3.Qanday bajarilishi kerak edi?

Kichik guruhlarda ishlash qoidalar va afzalliklari 2. Sherigingizni diqqat bilan tinglang. 2.Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing. 3.Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling. 1. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart. Afzalliklari: - mavzu birgalikda eshittirilib muhokama qilinadi - talabalar bilimi tekshiriladi - diskussiya ko'nikmasi oshiriladi - mashg'ulot o'yin sifatida o'tkaziladi - har bir talaba qatnashadi.

2- ilova

<i>Ball</i>	<i>Baho</i>	<i>Talabaning bilim mezonlari</i>
86-100	A'lo	Bugungi mavzu haqida xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritib, amalda qo'llay oladi. Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
71-85	Yaxshi	Mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritib biladi, olgan bilimlarini amalda qo'llay biladi, mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
55-70	Qoniqarli	Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurga ega.
0-54	Qoniqarsiz	Mavzu haqida aniq tasavvurga ega emas. Mavzuni bilmaydi.

3 – amaliy mashg'ulot mavzusi bayoni

Mavzu **Bronxial astma va bronxitlarda igna refleksoterapiya (IRT) nuqtalari.**

Bronxit

Bronxit tez-tez uchrab turadigan nafas yo'llari kasalligi bo'lib, bronx devorlarining infektsiyali yallig'lanishi bilan kechadi. Uning ikki formasi: o'tkir va surunkali formasi tafovut qilinadi. Sharq tabobatida bronxit «balg'am bilan yo'tal» va «shilliq» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Bronxit tashqi yoki ichki kasallik keltirib chiqaruvchi patologik energiya ta'sirida yuzaga keladi. Tashqi faktorlarga ekologik faktorlar (ayniqsa «sovuq» va «shamol») kirs, ichki faktorlarga 5 qattiq organlar energiyalari harakatini buzilishi (asosan o'pka, taloq va buyrak) kiradi.

Simptomatikasi. Bronxitning 2 ta formasi tafovut qilinadi.

1. Tashqi faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: quruq va xiripli yo'tal yoki balg'am bilan, tana haroratini oshishi, varaja, bosh og'rig'i, burun bitishi, tanada og'irlik, tilda yupqa oq karash, puls yuzaki yoki tez.

2. Ichki faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: kunduzgi va kechqurungi doimiy yo'tal, ertalabki umumiy holsizlik, ishtahaning pasayishi, balg'am ko'pligi va yopishqoqligi, nafas olish qiyinligi, nafas etishmasligi, ko'krak qisishi hissiyoti, ich ketishi yoki me'yorida, til ko'kimtir, oq qalin karash bilan qoplangan, oyoq tovonni issiq, tomoqda quruqlik, oriqlash, teri quruq bo'ladi.

Ignaterapiya.

Tashqi faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxit formasi. Davolash printsipli: «shamol-sovuq» sindromida «sovuq» energiyasiga «tarqatuvchi» ta'sir qilinadi. «Shamol-issiq» sindromida «issiqni» yo'qotish va yo'talni to'xtatish kerak bo'ladi.

Ichki faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxit formasi. Davolash printsipli: «bo'shlik» sindromida o'pka energiyasini tonuslashtirish kerak bo'ladi. Taloq va o'pka «bo'shlik» sindromida nafas olishni engillashtirish, balg'amni kamaytirish, taloq funksiyasini aktivlashtirish, undagi «ho'llikni» kamaytirish kerak. Buyrakning energiyani akkumulyatsiya qilish xususiyati pasayganda uni «isitish» kerak bo'ladi. «Bo'shlik» sindromida IN energiyani kuchaytirish, o'pkani «oziqlantirish», balg'amni kamaytirish kerak.

Ta'sir nuqtalari:

Tashqi faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: 13 V, 1P, 17 VC, 7P, 14 VG.

Ichki faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: 13 F, 43 V, 36 E, 4 VG, 6 RP.

Nuqtalar terapevtik effekti: 13V va 1P nuqtalarga ta'sir etilsa o'pka energiyasini normallashtirishga yordam beradi, 17VC –butun organizmning energiyasini tonusini oshiradi va ko'krak sohasidagi meridianlarda o'tkazuvchanlikni yaxshilaydi, 7P –organizm yuzasidagi patologik energiyani yo'qotadi, 14 VG-«YaN» meridianlardagi energiyani qo'zg'atish va patologik energiyaga qarshi kurashish uchun ishlatiladi. 43V va 36E-taloq va oshqozonning funksional faoliyatini va tana o'rta qismi energiyasini tonusini oshiradi. Kuydirishda 4VG-«isitish» va ichki organlar energiyasini to'ldirish uchun ishlatiladi. 6RP nuqtaga tonuslovchi ta'sir etganda IN-energiyani kuchaytiradi va IN «bo'shlik» sindromini davolaydi.

Aurikuloterapiya: Bronx, traxeya, o'pka, buyrak, taloq nuqtalariga har kuni yoki kunora ta'sir etiladi. Bir seansda 1-2 nuqtaga 30-60 minutgacha igna qo'yiladi.

Bronxialastma

Bronxial astma-infektsion allergik kasallik bo'lib, tez-tez bo'g'ilish xurujlari bilan harakterlanadi. Sharq tabobatida kasallik «bo'g'ilish xuruji» nomi bilan yuritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Bo'g'ilish xuruji qattiq (parenximatoz) ichki organlar - o'pka, taloq, buyrak bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki o'pka energiya uchun javobgar bo'lib, taloq «bo'shlig'i», «balg'am-xo'llik» sindromini keltirib chiqaradi, buyrak esa energiyani akkumulyatsiya qiladi. Ichki organlar «bo'shlig'i» patologik energiyani organizmga kirishi bilan birgalikda kelganda, noto'g'ri ovqatlanish, psixik labillik energiya va balg'amning to'xtatishiga olib keladi, bu o'pka energiyasini ko'tarilish va tushish qobiliyatini yo'qotadi va «bo'g'ilish xurujlari» yuzaga keladi. Nafas olish og'irlashib, o'ziga xos hushtaksimon harakterda bo'ladi, bemor og'iz orqali nafas oladi. Og'ir formalarida bemorning yuz sohasi ko'karib, ter bilan qoplanadi.

Simptomatikasi. Bronxial astmaning 2 formasi farqlanadi.

1. «Sovuq» sindromiga kiruvchi astmada - chanqash bo'lmaydi, varaja, ich ketish bo'ladi, oyoq-qo'llar sovuq, til ko'kimtir rangda, puls kuchlanishli, ingichka, sirpanuvchan.

2. «Issiq» sindromiga kiruvchi astmada - bemor issiqdan qochadi, salqin joyni qidiradi, asabiylashgan, ko'p terlaydi, chanqaydi, siydik kam, qizg'ish rangda bo'ladi, ich qotishi kuzatiladi, tili sarg'ish yoki sariq karash bilan qoplangan, puls sirpanuvchan, tez bo'ladi.

Ignaterapiya

«Sovuq» sindromiga kiruvchi astmada - davolash printsipli: o'pkani «isitish», «sovuq» sindromini, balg'am va xurujlarni yo'qotish.

«Issiq» sindromiga kiruvchi astmada - davolash printsipi: o'pkani «sovutish», «issiqlikni» tarqatish, balg'amni paydo bo'lishiga erishish va xurujlarni yo'qotish. Keksa kishilarda «Olov-bo'shlik» sindromi bo'lganda buyrak sohasini isitish kerak. Taloqni «bo'shlig'ida», «balg'am-ho'llik» sindromida taloqni aktivlashtirish, «ho'llikni» yo'qotish, energiya tonusini oshirish, tanani 3 qismi meridianini o'rta qismini «isitish» kerak.

Ta'sir nuqtalari:

Xuruj vaqtida nafas olishni regulatsiya qiluvchi nuqtalar-AP31, 22VC, 1P, 11GI, 40E, 36E

Remissiya davrida qo'shimcha 13V, 20 V, 23 V nuqtalariga ta'sir etiladi.

Ta'sir uslubi: «sovuq» sindromidagi astmada alohida kuydirish yoki igna sanchish bilan kuydirish, «issiq» sindromidagi astmada faqat igna sanchish, to'g'ri ovqatlanish, dam olish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. «Sovuq» sindromidagi astmada 1P, 17VC, 13V, qo'shimcha 20V, 43V ga banka qo'yish tavsiya etiladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: AP31 nafas olishni regulatsiya qiluvchi nuqta hisoblanib, bu bronxial astma kasalligida maxsus ishlatiladi. R1 nuqtaga o'pka energiyasini tiklash va regulatsiya qilish uchun ta'sir etiladi. 22VC – balg'amni yo'qotib, o'pka energiyasini o'tkazuvchanligini yaxshilaydi, 40E va 36E balg'amni ketkazishda, yuqori ko'tarilgan energiyani pastga tushirishga yordam beradi.

Remissiya davrida 13V nuqtani 22VC va 1R nuqtalari bilan birgalikda qo'llanilishi o'pka energiyasini tiklaydi. 20V nuqtasiga 36E va 40E nuqtalar bilan birgalikda ta'sir etilsa energiya harakatini tiklaydi, balg'amni kamaytirib «ho'llikni» yo'qotadi. 23V nuqta 1R nuqta bilan birgalikda balg'amni kamayishiga, buyrakni «isishiga» va energiyani akkumulyatsiyasiga yordam beradi.

Aurikuloterapiya. Xuruj vaqtida astma, o'pka, simpatik nerv sistemasi, ichki sekretiya bezlari, taloq, oshqozon osti bezi, buyrak nuqtalariga intensiv ta'sir ko'rsatish tavsiya etiladi. Ignani 30 daqiqadan 60 daqiqagacha qoldirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.
- 2.Ovechkin A.M.Osnovo` chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416
3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.
- 4.Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo`vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
- 7.X.N.Qayumov, Z.I.Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017 y.

4-mavzu	Oshqozon yarasi (gastrit) 12-barmoqli ichak va oshqozon yallig'lanishi kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi.
4.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg'ulot vaqti -240 daqiqa	Talabalar soni: 9 ta
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va

	mustahkamlash yuzasidan oʻtiladigan amaliy mashgʻulot	
Amaliy mashgʻulot rejasi	1. Oshqozon yarasi kasalligida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi. 2. 12-barmoqli ichak va oshqozon yalligʻlanishi kasalligida igna refleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Oshqozon yarasi,12-barmoqli ichak va oshqozon yalligʻlanishi igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi, nuqtalarga ta'sir usullari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.		
- Pedagogik vazifalar: - Gastrit va yara kasalliklarida ta'sir usullarini yoritib berish - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar bilan tanishtirish - Igna sanchish uslublarini koʻrsatish. Amaliy koʻnikmalar: - Talabalar quyidagilarni bajara olishi kerak - igna sanchish texnikasini oʻrganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - bemorlarga igna qoʻya bilish boʻyicha talabalarga koʻnikma hosil qilish.		Oʻquv faoliyati natijalari: - 12-barmoqli ichak va oshqozon yalligʻlanishi kasalliklarida biologik faol nuqtalarga ta'sir usullari haqida toʻliq ma'lumot beriladi; - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar r mohiyatini tushuntirib beradi; - igna sanchish texnikasi oʻrgatiladi; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish usullari va bemorlarga qoʻya bilish mahorati koʻrsatiladi. -igna bilan davolashda mumkin boʻlgan asoratlarda yordam koʻrsatishni oʻrgatish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-soʻrov	
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, interaktiv usulda kichik guruhlar bilan ishlash	
Ta'lim berish vositalari	Oʻquv qoʻllanma, darslik, proektor, kompyuter	
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya	
Monitoring va baholash	Ogʻzaki savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, test.	

4.2. Oshqozon yarasi (gastrit) 12-barmoqli ichak va oshqozon yallig'lanishi kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi kichik guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi (1- ilova).	

	4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2- ilova).	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (20 daqiqa)	1.3. Mavzuga kirish bosqichi: - Salomlashish; guruh sardoridan davomat so'raladi. 1.2. Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi; 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi. 1.4. O'tilgan mavzu bo'yicha Bilim daraxti, tezkor savol javob asosida mavzu mustahkamlanadi va bugungi mavzu yoritib beriladi.	Tinglaydilar
2 – asosiy bosqich 80 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi. 2.2.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. - Mavzuning asosiy qismlarini doskaga yozib tushuntiradi. - Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savol-javob boshlanadi. ("Aqliy hujum"). 2.4. Savol-javob tugagandan so'ng barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalanadi. Talabalar, ayniqsa, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. 2.5. Mavzuni mustahkamlash maqsadida vaziyatli masalalar va test savollari beriladi	Tinglaydilar Kichik guruhlarga bo'linadilar Faol qatnashadilar
Klinik mashg'ulot (80 daqiqa)	- igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	Tinglaydilar Bajariladi
3- amaliy ko'nikmalarni bajarish va mashg'ulotni yakunlash bosqichi (40 daqiqa)	3.1. Amaliy ko'nikmalar bajariladi. 3.2. Amaliy va klinik mashg'ulotlaryuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Talabalar umumiy baholanadi va mavzu to'liq o'zlashtirishi uchun uyga vazifa beriladi. Mustaqil ish mavzusi taqdim etiladi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

1 – ilova

“Aqliy hujum”

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan usuldir. Bu haqiqatdan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi usuldir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzuni yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin; masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Usulni ishlatishga kirishmoq...1-usul guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo'yiladi.

1. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: U auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.

2. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

2-usul: barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga taqdim etiladi.

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha, balki 4- 6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhlarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum uyushtiriladi yoki alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G'oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shundan sahifa - plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo'yiladi. Sahifa - plakat jarayonning oxirida har bir xoxlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rishi uchun osib qo'yiladi.

5. Aqliy hujumning bu usuli vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo'lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O'qituvchi yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy hujum amalga oshirilayotgan paytida o'tib turadi. Muhim g'oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo'lishi va muammolarda muhokama etilgan bo'lishi kerak. Ko'pgina muhim g'oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog'ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez- tez yuzaga kelib turadi. Ya'ni nomigagina kichik korxona yaratish kabi.

Yakuniy xulosaga kelish, ayniqsa, qiyin. Bu tabiiy, chunki har bir ishtirok etuvchiga "o'zimning g'oyam eng yaxshi" degan xususiyat xosdir. Umumiy pozitsiya, har qalay, tezda topiladi va bunda quyidagi usul yordamga kelishi mumkin.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari va afzalliklari

2. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.

2.Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.

3.Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.

1. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Afzalliklari:

- mavzu birgalikda eshittirilib muhokama qilinadi
- talabalar bilimi tekshiriladi
- diskussiya ko'nikmasi oshiriladi
- mashg'ulot o'yin sifatida o'tkaziladi
- har bir talaba qatnashadi.

2- ilova

<i>Ball</i>	<i>Baho</i>	<i>Talabaning bilim mezon</i>
86-100	A'lo	Bugungi mavzu haqida xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritib, amalda qo'llay oladi. Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
71-85	Yaxshi	Mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritib biladi, olgan bilimlarini amalda qo'llay biladi, mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
55-70	Qoniqarli	Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurga ega.
0-54	Qoniqarsiz	Mavzu haqida aniq tasavvurga ega emas. Mavzuni bilmaydi.

4 – amaliy mashg'ulot mavzusi bayoni

Mavzu Oshqozon yaras (gastrit) 12-barmoqli ichak va oshqozon yallig'lanishi kasalligida IRT nuqtalari topografiyasi.

Epigastral sohada og'riq

Qorin bo'shlig'i organlari kasalliklarida asosiy simptom bu og'riq hisoblanadi.

Etiologiya va patogenezi. Oshqozon va taloq «bo'shlik-sovuqligi», oshqozon issiqligi, energiya o'tmasligi, ovqat o'tmasligi, balg'am-ho'llik, qon dimlanish hollari oshqozon sohasida og'riq kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu holat oshqozon funksiyasining buzilishiga, energiyasining bir ko'tarilib, bir tushishiga olib keladi, natijada og'riq paydo bo'ladi.

Simptomatikasi. Buzilishlarning 2 ta formasi tafovut qilinadi.

Jigar energiyasining oshqozonga salbiy ta'siri natijasida og'riqning paydo bo'lishi: sababsiz hayajon, birdaniga jahlning chiqishi, oshqozon sohasida og'riq, qorin yuqori sohasida dam bo'lishi, achchiq yoki xavoli kekirish.

Oshqozon va taloqning «bo'shlik-sovuqlik» sindromi natijasida og'riqning paydo bo'lishi: qorin yuqori qismida to'mtoq og'riq, qusishda tiniq suyuqlik chiqishi, tez charchash, puls bo'sh, yuMChoq bo'lishi kuzatiladi.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari. Jigar energiyasining oshqozonga salbiy ta'siri natijasida og'riq paydo bo'lishida jigar va oshqozon funksiyasini regulyatsiya qilish.

Ta'sir nuqtalari: 12VC, 14F, 6MC, 36E, 34VB nuqtalarga tarqatuvchi ta'sir etiladi.

Davolash printsiplari. «Bo'shlik – sovuqlik» sindromi natijasida og'riq paydo bo'lishida oshqozon va taloqni isitish va tonuslash.

Ta'sir nuqtalari: 20 V, 21 V, 12 VC, 6 MC, 36 E, 13F nuqtalarga tonusni oshiruvchi ta'sir etiladi yoki kuydiriladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: 12VC nuqta oshqozon sohasidagi buzilishlarni davolash uchun, 36E va 6MC organizmda ovqat hazm qilish funksiyasining buzilishlarini davolashda qo'llaniladi. 14V va 34 VB nuqtalar esa jigar energiyasi o'tkazuvchanligini tiklash maqsadida qo'llaniladi.

Aurikuloterapiya: oshqozon, jigar, simpatik nerv sitemasi, AP 55 nuqtalarigata'sir etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.
2. Ovechkin A.M. Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416
3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.
4. Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
7. X.N. Qayumov, Z.I. Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017 y.

Vaziyatli masalalar

1. Bemorda oshqozon yara kasalligi.
Jig'ildon qaynashini kamaytirish uchun qaysi nuqtalar tavsia etiladi?
Javob: VB₂₀ va TR₅ yoki MS₆ va E₃₆ nuqtalariga igna sanchish.
2. Bemor 12 barmoq ichak yarasi kasalligi bilan aziyat chekadi. Tasir ko'rsatish usullarini tanlashda shifokor taktikasi qanday?
Javob: Odatda tormozlovchi usulining II varianti, ifodalangan og'riq sindromlarida esa tormozlovchi usulining I varianti qo'llaniladi.
3. Yara kasalliklarida ko'pincha tez – tez qo'llaniladigan nuqtalarni ayting.
Javob: E₃₆; MC₆; RP₄; J₁₂ – J₁₅; V₂₀ – V₂₂.
4. Bemor qusishga shikoyat qiladi, anamnezda yara kasalligi. Shifokor qanday yo'l tutadi.
Javob: E₃₆; J₁₂; F₃; MC₆; V₂₀ – V₂₂ nuqtalariga igna sanchish.
5. Yara kasalligi bo'lgan bemorga nima uchun GI₄ va V₆₀ nuqtalari belgilanadi?
Javob: Bu nuqtalar umumiy og'riqqa qarshi tasirga ega.
6. Motorika va sekretiysiga GI₄; E₃₆; V₂₁ va MS₆ nuqtalari qanday tasir ko'rsatadi?
Javob: GI₄ nuqtasiga ta'sir ko'rsatish oshqozon sekretiysiga qanchalik teng qiymatli tasir ko'rsatsa, motorikaga ham shunday tasir qiladi. E₃₆ va V₂₁ nuqtalari ko'proq peristaltikaga, MC₆ nuqtasi esa, asosan oshqozon sekretiysiga ta'sir ko'rsatadi.
7. Ayol 27yosh, kelgandagi shikoyatlari: kuniga 12 marta ko'p miqdorda qon aralashmasi, shilliq va yiringli aralash suyuq ich kelishi, kuchli tenezmlar, qorinning pastki sohasidagi og'riqlar, tana haroratining 39,8 gacha oshishi. Yaqqol intoksikatsiya belgilari (holsizlik, bosh og'rish va b.) Sigmoidoskopiya: shilliq qavatning keng yaralanishi, ko'p miqdorda yiringli ekssudat bilan, normal qon-tomir surati buzilgan, psevdopolipplar.
 1. Tashxis qo'yning
 2. Quyidagi bemorda qanday IRT bajariladi

5-mavzu	Bel dumg'aza radikuliti, 3 shoxli nerv nevralgiyasi, yuz nervi nevriti kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi.
----------------	--

5.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti -240 daqiqa	Talabalar soni: 9 ta
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va

	mustahkamlash yuzasidan oʻtiladigan amaliy mashgʻulot	
Amaliy mashgʻulot rejasi	1.Bel dumgʻaza radikuliti, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi nevrity kasalligida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi. 2. 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi nevrity kasalligida igna refleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Bel dumgʻaza radikuliti, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi nevrity kasalligida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi, nuqtalarga ta'sir usullari boʻyicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.		
- Pedagogik vazifalar: - Bel dumgʻaza radikuliti, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi nevrity kasalligida ignarefleksoterapiya ta'sir usullarini yoritib berish - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar bilan tanishtirish - Igna sanchish uslublarini koʻrsatish. Amaliy koʻnikmalar: - Talabalar quyidagilarni bajara olishi kerak - igna sanchish texnikasini oʻrganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - bemorlarga igna qoʻya bilish boʻyicha talabalarga koʻnikma hosil qilish.		Oʻquv faoliyati natijalari: - Bel dumgʻaza radikuliti, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi nevrity kasalligida ignarefleksoterapiyakasalliklarida biologik faol nuqtalarga ta'sir usullari haqida toʻliq ma'lumot beriladi; - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar r mohiyatini tushuntirib beradi; - igna sanchish texnikasi oʻrgatiladi; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish usullari va bemorlarga qoʻya bilish mahorati koʻrsatiladi. -igna bilan davolashda mumkin boʻlgan asoratlarda yordam koʻrsatishni oʻrgatish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-soʻrov	
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, interaktiv usulda kichik guruhlar bilan ishlash	
Ta'lim berish vositalari	Oʻquv qoʻllanma, darslik, proektor, kompyuter	
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya	
Monitoring va baholash	Ogʻzaki savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, test.	

5.2. Bel dumg'aza radikuliti, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi nevrity kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorlov bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi kichik guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni	

	tayyorlaydi (1- ilova). 4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2- ilova).	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (20 daqiqa)	1.4. Mavzuga kirish bosqichi: - Salomlashish; guruh sardoridan davomat so'raladi. 1.2. Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi; 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi. 1.4. O'tilgan mavzu bo'yicha Bilim daraxti, tezkor savol javob asosida mavzu mustahkamlanadi va bugungi mavzu yoritib beriladi.	Tinglaydilar
2 – asosiy bosqich 80 daqiqa) (20 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 2.2.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. - Mavzuning asosiy qismlarini doskaga yozib tushuntiradi. - Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savol-javob boshlanadi. ("Dumaloq stol"). 2.4. Savol-javob tugagandan so'ng barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalanadi. Talabalar, ayniqsa, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. 2.5. Mavzuni mustahkamlash maqsadida vaziyatli masalalar va test savollari beriladi	Tinglaydilar Kichik guruhlar bo'linadilar Faol qatnashadilar
Klinik mashg'ulot (80 daqiqa)	- igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	Tinglaydilar Bajariladi
3- amaliy ko'nikmalarni bajarish va mashg'ulotni yakunlash bosqichi (40 daqiqa)	3.1. Amaliy ko'nikmalar bajariladi. 3.2. Amaliy va klinik mashg'ulotlar yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Talabalar umumiy baholanadi va mavzu to'liq o'zlashtirishi uchun uyga vazifa beriladi. Mustaqil ish mavzusi taqdim etiladi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

1 – ilova

“Dumaloq stol” usuli

Stol ustiga vaziyatli masala yozilgan qog'oz tashlanadi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib boshqa talabaga uzatadi. hamma o'z javobini yozib bo'lgandan keyin tahlil qilinadi: noto'g'ri javoblar o'chirilib to'g'ri javoblar muhokama qilinib, talabalar bilim darajasi baholanadi. Bu usulni nafaqat yozma, balki og'zaki ham bajarish mumkin.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalar va afzalliklari 3. Sherigingizni diqqat bilan tinglang. 2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing. 3. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling. 2. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart. Afzalliklari: - mavzu birgalikda eshittirilib muhokama qilinadi - talabalar bilimi tekshiriladi - diskussiya ko'nikmasi oshiriladi - mashg'ulot o'yin sifatida o'tkaziladi - har bir talaba qatnashadi.

2- ilova

Ball	Baho	Talabaning bilim mezon
86-100	A'lo	Bugungi mavzu haqida xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritib, amalda qo'llay oladi. Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
71-85	Yaxshi	Mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritib biladi, olgan bilimlarini amalda qo'llay biladi, mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
55-70	Qoniqarli	Mavzu mohiyatini tushinib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurga ega.
0-54	Qoniqarsiz	Mavzu haqida aniq tasavvurga ega emas. Mavzuni bilmaydi.

5 – amaliy mashg'ulot mavzusi bayoni

Mavzu Bel-But radikuliti, yuz nervi nevriti va 3 shoxli nerv nevrologiyasida IRT nuqtalari topografiyasi.

Quymich nerv nevrалgiyasi - quymich nerv yo'li bo'ylab og'riq bilan harakterlanadigan sindrom hisoblanadi. Og'riq nerv yoki nerv tugunchalari zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Sharq tabobatida quymich nerv yallig'lanishi «Ichki» sindromga kiritilgan.

Etiologiya va patogenezi. Quymich nervi nevrалgiyasining kelib chiqishi kasallik keltirib chiqaruvchi «shamol», «sovuq», «shamol-issiqlik» yoki «namlik-issiqlik» kabi faktorlarning siydik va o't pufagi meridianlariga kirishi bilan bog'liq. Bundan tashqari kasallik yuqoridagi meridianlarda qon to'planib qolishi natijasida ham kelib chiqadi. Natijada siydik va o't pufagi meridianlarida energiya va qon sirkulyatsiyasi buziladi. Bu esa quyidagi qonunga asos bo'ladi:

«o'tkazuvchanlik buzilgan joyda og'riq paydo bo'ladi», agar bu patologik holat uzoq davom etsa, jigar va buyraklarga ta'sir qiladi.

Simptomatikasi. Kasallikning 2 formasi tafovut qilinadi.

1. Egilganda bel sohasida meridian bo'ylab uzluksiz yoki xurujsimon og'riq - yo'talganda, aksirganda, uzoq vaqt piyoda yurganda og'riq kuchayadi va orqadan oyoqlarga qarab irradiatsiyalanadi. Og'riq karakteri-to'mtoq (sovuq-ho'llik sindromida) sanchuvchi yoki kesuvchi (qon to'planganda). Og'riqli nuqtalar sifatida 25V, 30VB, 36V, 40V, 57V, 60V, 34VB nuqtalari aniqlanadi. Boldir tashqi yuzasi va oyoq panjasi yuza sohalarida sezgi gipersensibilizatsiyalashgan yoki karaxtlik kuzatiladi. Bemor harakatlanishi qiyinlashgan, zararlangan nerv bo'ylab mushak taranglashgan bo'ladi. Bu taranglashish mushak harakatga kelgan vaqtda og'riqning paydo bo'lishi, oqibatda harakatning cheklanishi va passiv harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

2. Dumba sohasi va oyoqlarda gipotrofiya, tizza refleksi saqlangan holda axil refleksi pasaygan yoki yo'qolganligini ko'rish mumkin (jigar va buyraklarning bo'shlig'i sababli ular paylarni etarlicha bo'shashtira olmaydi). Oyoqlarda sovuq qotish yoki isish kuzatilishi mumkin.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: o't va siydik pufagi meridianlari o'tkazuvchanligini tiklash uchun quyidagi nuqtalarga ta'sir etiladi 30VB, 36V, 40V, 57V, 60V, 34VB, 3F, 25V, 31VB.

Ta'sir etish usuli: har bir seansda 3-5 ta nuqtaga ta'sir etiladi. Har bir nuqtaga ta'sir etganda igna effekti bo'lishi kerak, ya'ni masalan 30 VB nuqtaga ta'sir qilinganda 40V nuqtaga irradiatsiya berishi kerak (pastga) va hokazo.

Nuqtalar terapevtik ta'siri: Yuqorida ko'rsatilgan nuqtalarga ta'sir meridianlarda energiyaing o'tkazuvchanligini me'yorlashtiradi, oyoq meridianlarida og'riqni kamaytiradi.

Aurikuloterapiya: quymich nervi, umurtqaning bel qismi, dumba, oyoq, buyrak usti bezi, AR55 nuqtalarga ta'sir etiladi.

III shoxli nerv nevrалgiyasi

Bu kasallik III shoxli nerv innervatsiyalovchi sohalarida keskin og'riq xuruji bilan karakterlanadi, sharq tabobatida u «zarar keltiruvchi shamoldan» yuzaga kelishi aytiladi va «bo'g'inlar yallig'lanishiga» kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. III shoxli nerv nevrалgiyasining kelib chiqishining asosiy sababi xastalik keltirib chiqaruvchi faktorlar «shamol va sovuq»ning 3 ta yuz sohasidan o'tuvchi YaN meridianlarga kirishi yoki shu meridianlarga qon tuplanib qolishi bo'lib hisoblanadi. Bu esa shu sohada YaN meridianlarda bosimning oshishiga va energiya hamda qonning tuxtab qolishiga olib keladi. Boshqa sabablar, jigar va oshqozonning «to'liqlik-issiqlik» sindromi, IN energiyasini «bo'shlig'i» ning yuqoriga, bosh va yo'zga intilishi.

Simptomatikasi. Yonuvchi og'riq xurujlari, buning oqibatida yuz mushaklarining igna sanchgani kabi qisqarishi, yuz terisi qizarishi, ko'z yoshi va so'lak ajralishi bilan birga kechadi. Xuruj davomiyligi 1-2 minut, kun davomida bir nechta xurujni kuzatish mumkin. Xuruj asosan yuz sohasidagi ba'zi og'riqli nuqtalarga tegishli joylarda paydo bo'ladi, bu nuqtalar 14VB, 2E, 20GI, 4E, 24VC.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: meridianlar faoliyatini faollashtirish va o'tkazuvchanligini tiklash.

Ta'sir nuqtalari: Yuqorida ko'rsatilgan nuqtalar va 17TR, 20VB, 4GI

Og'riqli nuqtalardan eng kuchlisiga igna bilan aylanma harakat qilib ta'sir qilinadi. Agar og'riq kamaymasa, unda boshqa bir og'riqli nuqtaga ta'sir etiladi. Igna bilan davolash har kun o'tkaziladi. Agar bu effektsiz bo'lsa, bunda ignaterapiya o'rniga teri ostiga 0,1 ml distillangan suv og'riqli nuqtaga yuboriladi.

Nuqtalar terapevtik ta'siri. Bu nuqtalarga ta'sir etish energiyai meridianlar bo'ylab harakatini tiklaydi. 17TR va 20VB nuqtalar shamol va sovuq ta'siridan yuzaga kelgan og'riqni yo'qotadi.

Aurikuloterapiya. Og'riqli nuqtalarga e'tibor beriladi, peshona, yuqori jag', pastki jag', simpatik nerv sistemasi, AR 55 nuqtalarga ta'sir etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.
2. Ovechkin A.M. Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416
3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.
4. Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
7. X.N. Qayumov, Z.I. Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017

Vaziyatli masalalar

№1 Bemor 18 yosh, shikoyati tez-tez tomir tortishishiga. Sizning taktikangiz? IRT muolajasini tanlang va o'tkazing.

№2 Bemor 41 yosh, tashxisi uch shoxli nerv nevralgiyasi. Sizning taktikangiz? IRT muolajasini tanlang va o'tkazing, seansning o'ziga xosligini ayting?

№3 Bemor 23 yosh, shikoyati ko'zda konyuktivit belgilari. Sizning taktikangiz? IRT muolajasini tanlang va o'tkazing.

№4 Bemor 7 yosh, shikoyati nutq ravonligi yo'qligiga. Sizning taktikangiz? IRT muolajasini tanlang va o'tkazing.

№5 Bemor 38 yosh, isterik holatda va tomir tortishishiga shikoyat qiladi. Sizning taktikangiz? IRT muolajasini tanlang va o'tkazing.

6-mavzu	Nefrit, piyelonefrit, buyrak sanchig'i, sistit kasalliklarida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi.
----------------	---

6.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti -240 daqiqa	Talabalar soni: 9 ta
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan o'tiladigan amaliy mashg'ulot

Amaliy mashg'ulot rejasi	1.Nefrit, piyelonefrit kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi. 2.Buyrak sanchig'i, sistit kasalliklarida igna refleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Nefrit, piyelonefrit, buyrak sanchig'i, sistit kasalliklarida ignarefleksoterapiya (IRT) nuqtalar topografiyasi, nuqtalarga ta'sir usullari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
- Pedagogik vazifalar: Nefrit, piyelonefrit, buyrak sanchig'i, sistit kasalliklarida ta'sir usullarini yoritib berish - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar bilan tanishtirish - Igna sanchish uslublarini ko'rsatish. Amaliy ko'nikmalar: - Talabalar quyidagilarni bajara olishi kerak - igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	O'quv faoliyati natijalari: - Nefrit, piyelonefrit, buyrak sanchig'i, sistit kasalliklarida biologik faol nuqtalarga ta'sir usullari haqida to'liq ma'lumot beriladi; - Ignaterapiya vaqtida kuzatiladigan asoratlar r mohiyatini tushuntirib beradi; - igna sanchish texnikasi o'rgatiladi; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish usullari va bemorlarga qo'ya bilish mahorati ko'rsatiladi. -igna bilan davolashda mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsatishni o'rgatish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, interaktiv usulda kichik guruhlar bilan ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, proektor, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, test.

6.2. Nefrit, piyelonefrit, buyrak sanchig'i, sistit kasalliklarida igna refleksoterapiya (IRT), nuqtalar topografiyasi mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi kichik guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi (1- ilova). 4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini	

	ishlab chiqadi (2- ilova).	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (20 daqiqa)	1.5. Mavzuga kirish bosqichi: - Salomlashish; guruh sardoridan davomat so'raladi. 1.2. Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi; 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi. 1.4. O'tilgan mavzu bo'yicha Bilim daraxti, tezkor savol javob asosida mavzu mustahkamlanadi va bugungi mavzu yoritib beriladi.	Tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (80 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi. 2.2.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. - Mavzuning asosiy qismlarini doskaga yozib tushuntiradi. - Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savol-javob boshlanadi. (“Uch bosqichli interv'yu”). 2.4. Savol-javob tugagandan so'ng barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalanadi. Talabalar, ayniqsa, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. 2.5. Mavzuni mustahkamlash maqsadida vaziyatli masalalar va test savollari beriladi	Tinglaydilar Kichik guruhlarga bo'linadilar Faol qatnashadilar
Klinik mashg'ulot (80 daqiqa)	- igna sanchish texnikasini o'rganish; - akupunktur nuqtalar topografiyasini topish; - igna bilan davolash usulini qo'llash vaqtida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarda yordam ko'rsata olish; - bemorlarga igna qo'ya bilish bo'yicha talabalarga ko'nikma hosil qilish.	Tinglaydilar Bajariladi
3- amaliy ko'nikmalarni bajarish va mashg'ulotni yakunlash bosqichi (40 daqiqa)	3.1. Amaliy ko'nikmalar bajariladi. 3.2. Amaliy va klinik mashg'ulot yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Talabalar umumiy baholanadi va mavzu to'liq o'zlashtirishi uchun uyga vazifa beriladi. Mustaqil ish mavzusi taqdim etiladi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

1 – ilova

“Uch bosqichli interv'yu” uslubi

Maqsad: Bemorning muammolarini aniqlash va hal qilishda unga to'g'ri psixologik yondashishni o'rgatish.

Asosiy tamoyillari: Guruh 2-3 ta kichik guruhchalarga bo'linadi va talabalarga rol bo'lib beriladi: shifokor, bemor, ekspert. Bemor rolini ijro etayotgan talabaga tashxis yashirin etkaziladi. Bemor kasallik shikoyatlari, kasallikning rivojlanishi, vrach esa bemor bilganlar va unda kasallik tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni mukammal bilishi shart. Har bir vrach bemor bilan maslahatni 10-15 daqiqa mobaynida olib boradi. Ekspert ishtirokchilar (bemor va vrach) faoliyatini quyidagi 3 bo'lim bo'yicha baholaydi:

- 1.Nima to'g'ri qilindi?
- 2.Nima noto'g'ri qilindi?
- 3.Qanday bajarilishi kerak edi?

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari va afzalliklari - Sherigingizni diqqat bilan tinglang. - Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing. - Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling. - Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart. Afzalliklari: - mavzu birgalikda eshittirilib muhokama qilinadi - talabalar bilimi tekshiriladi - diskussiya ko'nikmasi oshiriladi - mashg'ulot o'yin sifatida o'tkaziladi - har bir talaba qatnashadi.	
---	--

2- ilova

<i>Ball</i>	<i>Baho</i>	<i>Talabaning bilim mezonlari</i>
86-100	A'lo	Bugungi mavzu haqida xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritib, amalda qo'llay oladi. Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
71-85	Yaxshi	Mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritib biladi, olgan bilimlarini amalda qo'llay biladi, mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha aniq tasavvurga ega.
55-70	Qoniqarli	Mavzu mohiyatini tushunib, bilib aytib beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurga ega.
0-54	Qoniqarsiz	Mavzu haqida aniq tasavvurga ega emas. Mavzuni bilmaydi.

6 – amaliy mashg'ulot mavzusi bayoni

Mavzu Nefrit, pielonefrit, buyrak sanchig'i, sistit va sistalgialarda ITR nuqtalari topografiyasi.

Buyrak sanchig'i

Buyrak sanchig'i xuruji buyrakdan siydik yo'lga o'tayotgan kichik toshning qisilib qolishi natijasida paydo bo'lib, unda urokinamika buziladi. Xuruj odatda bir tomonlama bo'lib, ko'pincha erkaklarda uchraydi. Sharq tabobatida bu holat «buyrakdagi toshlar» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenez. Ho'llik-issiqlik sindromi va siydik pufagi, hamda ingichka ichakda dimlanish uzoq vaqt davom etishi natijasida toshlar hosil bo'ladi. Bu esa energiya funksiyasining buzilishiga, siydik ajralishi buzilishiga va qorindan orqaga irradiatsiyalanuvchi o'tkir og'riqlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Simptomatikasi. Bel sohasiga va sonning ichki yuzasiga tarqaluvchi, qorinning pastki qismida to'satdan o'tkir xurujsimon kesuvchi harakterdagi og'riq bemorni bezovta qiladi. Bundan tashqari siydik yo'li bo'ylab o'tkir og'riq, diurezning buzilishi, yuzning oqarishi, ko'p ter ajralishi, ko'ngil aynishi yoki qusish, es-hushdan ketish holati ham kuzatilishi mumkin.

Ignaterapiya

Davolash printsiplari: Ho'llik-issiqlik sindromini yo'qotish, energiya o'tkazuvchanligini tiklash, og'riqni yo'qotish.

Ta'sir nuqtalari: 23V, 28V, 3VC, 10R nuqtalarga tarqatuvchi yoki energiyani tonuslovchi, yarim tarqatuvchi ta'sir qilinadi.

Nuqtalar terapevtik ta'siri: siydik pufagi mushaklari energiyasini regulatsiyalash maqsadida qo'llaniladigan nuqta 28V, 3VC va 10R nuqtalariga birgalikda ta'sir qilish natijasida buyrak mushak energiyasi me'yorlashadi. Buyrak va siydik pufagi mushak energiyasi me'yorlashgandan keyin siydik o'tishi tiklanadi, siydik pufagida ho'llik-issiqlik sindromi yo'qoladi.

Aurikuloterapiya: Zararlangan organ-buyraklarga mos keluvchi zona nuqtalariga igna bilan ta'sir etish, aurikulyar nuqtalarga: siydik yo'li yoki buyrak (og'riqli nuqtalar bo'lmaganda), simpatik nerv sistemasi kiradi. Qo'shimcha ta'sir qilinadigan nuqtalar: siydik pufagi, ingichka ichak, ichki sekretiya bezlari.

Enurez va siydikni tuta bilmaslik

Kechquringi enurez - bu uyqu paytida ixtiyorsiz siyishdir. Siydikni tuta olmaslik esa, bolalar siydik aktini kunduzi tuta olmasligidir. Enurez asosan bolalarda uchraydi. Siydikni tuta olmaslik esa keksalarda, og'ir bemorlarda kuzatiladi. Sharq tabobatida bu ikkala buzilish «siydikni tuta olmaslik» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenez. Buyrak va tananing 3 qismi meridianlari pastki qismida energiya harakati sustlashishi va siydik pufagi qisqarishi xususiyatining buzilishi natijasida bu ikkala kasallik kelib chiqadi.

Simptomatikasi. Enurez kasalligida siydik tuta olmaslik bemorda kechasi 1-2 marta, ba'zan 3-4 martagacha kuzatilishi mumkin.

Ignaterapiya.

Davolash printsiplari: Buyrak va tana 3 qismi meridianlari energiyasini boshqarish va mustahkamlash.

Ta'sir nuqtalari: 28V, 3VC, 22V, qo'shimcha 23V, 4VG. Barcha nuqtalarga tonuslovchi ta'sir etiladi.

Nuqtalar terapevtik effekti: 28V va 3VC nuqtalar siydik pufagi qisqarishini boshqaradi. 22V nuqta esa tana 3 qismi meridiani energiyasini kuchaytiradi. Bu 3 la nuqta siydik pufagi mushagi qisqarishini me'yorlashtirish uchun ham qo'llaniladi.

Aurikuloterapiya: siydik pufagi, tashqi jinsiy organlar, simpatik nerv sistemasi, AP55 nuqtalariga ta'sir kilinadi. Siydik tuta olmaslikda qo'shimcha buyrak, gipofiz (miya) nuqtalari ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.

2. Ovechkin A.M. Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416

3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.

4. Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo`vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
7. X.N. Qayumov, Z.I. Tuksanova «Ignaterapiya» o`quv qo`llanma – Buxoro, 2017 y.

Vaziyatli masalalar:

1. Bemorda Bel-dumg`uza osteoxondrozi. Rivojlanish sababi ? Shifokor qanday yo`l tutadi ?

Javob: Rivojlanish sabablari ushbu bo`lim diskklarining degenerativ – distrofik o`zgarishlaridir. Bemorga umurtqa pog`onasidagi yuklanishni to`xtatish uchun tinch holatni tashkil qilish. Og`riqni qoldirish uchun blokadalar, degidratatsion terapiya, analgetiklar, kechasiga sedativ preparatlar, IRT belgilanadi.

2. Bemorda Bel-dumg`uza osteoxondrozining o`tkir davri. Qanday muolajalar mumkin emas? Fizioterapevtik muolajalardan qaysilarni belgilash maqsadga muvofiq ?

Javob: O`tkir davrda – issiq muolajalar, DJT, uqalash mumkin emas. Ultrabinafsha nurlari, diadinamik nuqtalar, elektroforez va boshqalar. Ushbu barcha muolajalar igna bilan davolashdan keyin mumkin bo`ladi.

3. Bemorda L₅ irrigatsiya. IRT uchun qaysi nuqtalar tavsiya etiladi?

Javob: IRT nuqtalari: VB₃₀; VB₃₄; E₃₆; E₄₂; E₄₄.

4. Bemorda S1 ildizchasi shikastlangan. Tavsiya qilinadigan IRT nuqtalarini ayting.

Javob: V₄₀; V₆₀ va VB₃₀.

5. Bemorda lyumbalgiya. Samarali nuqtalarni ayting.

Javob: kuchli stimulyasiya bilan T₄ va V₄₀ nuqtalari qo`llaniladi.

6. Bemorda bel – dumg`aza radikuliti. Qaysi usullar mos keladi ?

Javob: tormoz usulining I yoki II varianti, yani kuchli va davolash stimulyasiyasi.

7. Bemorda yuz nervi nevitining o`tkir davri. Shifokor qanday yo`l tutadi

Javob: O`tkir davrda uchta asosiy usul ko`zda tutiladi: birinchidan, yuzning sog` tomoniga (20 daq) tasir ko`rsatish; ikkinchidan, 1-2 uzoq nuqtalarni (P, GI₄ yoki GJ₁₁) (20 daq) qo`llash; uchinchidan yuzning kasal tomonida qo`zg`atuvchi usul bo`yicha 5 daqiqa davomida IRT o`tkazish.

Mustaqil ini tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar bo`yicha fan boblari va mavzularini o`rganish;
 - tarqatma materiallar bo`yicha ma`ruzalar qismini o`zlashtirish;
 - avtomatlashtirilgan o`rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
 - maxsus adabiyotlar bo`yicha fanlar bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlash, al`bom va organayzerlar tayyorlash;
 - yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o`rganish;
 - talabaning o`quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq bo`lgan fanlar bo`limlari va mavzularni chuqur o`rganish;
 - faol va muammoli o`qitish uslubidan foydalaniladigan o`quv mashg`ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta`lim.

Talabalar mustaqil ishlarining tematik rejasi

t/r	Mavzular mazmuni	Soat
1	Moksaterapiya. Girudoterapiya.	3
2	Fitoterapiya.	3
3	Sharq tibbiyot allomalari asarlari.	3
4	Akupunktura. Akupressura.	3
5	Sigunterapiya. Xitoy an'anaviy tibbiyoti.	3
6	Tib qonunlari. Mizoj ta'limoti.	4
	Jami	19

Izoh: *- Mustaqil ish mavzulari alohida baholanadi.

5. GLOSSARIY

Akupunktura – davo maqsadida ta'sir etiladigan nuqta

Byan'-shi – kvartsdan tayyorlangan igna

Guan' – pul's pal'patsiyasi sohalari

Lo punkt – mo'tadillovchi nuqta

Meridian – kanal yoki yo'l- energiya sirkulyatsiyalanadi

Mo punkt – signal nuqta

Nan'-Szin' – og'irlik haqida kitob

Proportsional sun' – teng qismlarga bo'lingan tana sohalari orasidagi masofa (o'lchov birligi)

U-sin nazariyasi – 5 element kontseptsiyasi

Xuandi Ney-Szin – ichki a'zolar haqida kitob

Szin'-lo – meridianlar haqidagi ta'limot

Szyu – kuydirish

Sun' – puls pal'patsiyasi sohalari

Chjen' – igna sanchish

Chi – pul's pal'patsiyasi sohalari

“Chi” ta'limoti – energiya haqidagi ta'limot

Ekstraordinar – mo'jizaviy nuqta

ILOVALAR

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди

№БД-5510100-3.13

2016 йил “09 ” 01



ХАЛҚ ТИББИЁТИ, ШИФОКОР НАЗОРАТИ, ДАВОЛОВЧИ
ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА ФИЗИОТЕРАПИЯ

ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳаси	100000 – Гуманитар соҳа;
	500000 – Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот.
Таълим соҳаси	110000 – Педагогика;
	510000 – Соғлиқни сақлаш.
Таълим йўналиши	5510100 – Даволаш иши;
	5111000 – Касб таълими (5510100 – Даволаш иши) .

Тошкент – 2016

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2016 йил “22” 01 даги “ 26 ”-сонли буйруғининг 2-илоvasи билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашининг 2016 йил “09 ” 01 даги 1 - сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Тошкент тиббиёт академиясида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Усманходжаева А.А.

Халқ тиббиёти, реабилитология ва жисмоний тарбия кафедра мудири, доцент, т.ф.н.

Адилов Ш.Қ.

Халқ тиббиёти, реабилитология ва жисмоний тарбия кафедра доценти, т.ф.н.

Высогорцева О.Н.

Халқ тиббиёти, реабилитология ва жисмоний тарбия кафедра қатта ўқитувчиси, т.ф.н.

Такризчилар:

Хамраев А.А.

ТТА УАШ ички касалликлари ва эндокринология кафедра мудири, доцент, т.ф.д.

Абдуллаев Х.Х.

АЖ“Республика ихтисослаштирилган илмий-амалий терапия ва тиббий реабилитация тиббиёт маркази”бош илмий ходим, т.ф.д.

Фан дастури Тошкент тиббиёт академияси Кенгашида кўриб чиқилган ва тавсия қилинган (2015 йил “23 ” 12 даги 5 - сонли баённома).

КИРИШ

Ушбу дастур кенг тарқалган касалликларнинг келиб чиқиши, кечиши, ташхис қўйиш, асоратлари ва уларни олдини олиш чоралари, тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича шарқ тиббиёти усуллари билан даволашнинг асосий кўникмаларини ҳосил қилиш, организмнинг жисмоний ривожланганлигини аниқлаш ва баҳолаш, иш қобилиятини аниқлаш, жисмоний юкламалар таъсирида организмнинг система ва органларида бўладиган ўзгаришлар, қўлланиладиган тиббий кўриклар, врач-педагог назорати, физик омиллар, характеристикаси, таъсир механизми, қўлланилиш усуллари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар, даволовчи жисмоний тарбия воситалари, шакллари, ҳаракат тартиботлари ва уларнинг вазифалари, қўлланилиш самарадорлигини аниқлаш, кўрсатма ва қарши кўрсатма масалаларини қамрайди ҳамда бўлғуси умумий амалиёт врачларида клиник фикрлаш, касаллик ва унинг белгиларини асослаш учун замин яратиб беради.

Фанининг мақсад ва вазифалари

Фанларни ўқитишдан мақсад – аҳолини саломатлигини яхшилаш ва мустаҳкамлаш, тиббиёт сифатини оширишда даволаш-профилактик чора тадбирларни амалга ошириш. Шифохона, шифомаскан (санаторий) ва амбулатор (поликлиника) шароитида турли касалликлар билан хасталланган беморларни даволашда, асоратларини олдини олишда ва профилактика мақсадида халқ тиббиёти, физик ва даволовчи жисмоний тарбия усулларни қўлланишига ўргатиш. Аҳолининг соғлигини мустаҳкамлаш, ижтимоий ва маиший шароитларга мослашишини (адаптациясини) яхшилаш. Шифокор назоратида -жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчиларнинг жисмоний ривожланганлигини, организмнинг функционал ҳолатини, асосий тизимларнинг ҳолатини, жисмоний юкламаларнинг организмга таъсирини, организм томонидан берилаётган жавоб реакцияларини баҳолашни ўргатиш.

Фаннинг вазифаси – уни ўрганувчиларга:

- Халқ тиббиёти усулларини (фитотерапия, халқ табobati воситаларини уй шароитида қўллаш, игнарефлексотерапия ва бошқалар) замонавий тиббиётда тўтган ўрнини, организмга таъсир этиш механизмини, турли касалликларда даволаш, асоратларининг олдини олиш ва организмнинг қаршилигини ошириш мақсадида қўлланилишини ўргатиш;
- физик муолажаларни организмга таъсир этиш механизмини, турли касалликларда даволаш, асоратларининг олдини олиш ва организмнинг қаршилигини ошириш мақсадида қўлланилишини ўргатиш;

- турли касалликларда даволаш ва реабилитация даврида тўлақонли комплекс тузиб организмни соғломлаштиришда оқилона фойдаланишни ўргатиш;
- жисмоний машқларнинг организмга таъсир этиш механизмини, турли касалликларда даволаш, асоратларининг олдини олиш ва организмнинг қаршилигини ошириш мақсадида қўлланилишини ўргатиш;
- даволаш ва реабилитация даврида даволовчи жисмоний тарбиянинг (ДЖТ) ҳаракат тартиботларини, восита ва шакллари тўғри танлашни ва қўллашни ўргатиш;
- аҳолининг турли контингентлари орасида, уларни жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига кўникишлари учун тиббий текширувдан ўтказиш қоидаларини ўргатиш;
- аҳолининг соғлиғини мустаҳкамлаш, ижтимоий ва маиший шароитларга мослашишини (адаптациясини) яхшилаш учун жисмоний юкламанинг организмга таъсирини баҳолаш усулларини ўргатиш.

Фан бўйича талабаларнинг тасаввур, билим, кўникма ва малакаларига қўйиладиган талаблар

“Халқ тиббиёти, шифокор назорати, даволовчи жисмоний тарбия ва физиотерпия” фанини ўзлаштириш жараёнида бакалавр:

- соғлиқни сақлаш тизими ва уларда олиб борилаётган ислохотлари;
- патология, касаллик ва саломатлик;
- жисмоний маданиятни услуб ва назарияларини асосий саволлари;
- жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчилар организмда бўладиган физиологик жараёнлари;
- спорт гигиенаси;
- жисмоний юкламанинг таъсир механизми;
- даволовчи жисмоний тарбиянинг умумий асослари;
- одам организмдаги биофизик реакциялари;
- тўқималарни биопотенциаллари;
- физик омилларининг одам организмга комплекстаъсир механизми;
- тиббий тикланишнинг физиотерапевтик йўналишлари;
- курорт ва санаторияларнинг турлари;
- Ўзбекистонда жойлашган шифомасканлари **ҳақида тасаввурга эга бўлиши;**
- халқ тиббиёти асослари концепциясининг аҳамиятини;
- доривор ўсимликлар таъсир механизмларини ва тавсия этиш;
- биологик фаол нукталарга таъсир кўрсатиш усулларини;
- қайнатма, дамламаларни тайёрлаш йўлларини;

- шарқ тиббиёти усуллари қўллаб даволанадиган нафас, юрак қон-томир, ҳазм қилиш, асаб ва сийдик айириш, гинекологик, эндокрин, тери, аллергия касалликларни даволаш;
- уй шароитида халқ табobati воситаларини қўллаган ҳолда даволаш усуллари;
- организмнинг жисмоний иш бажариш қобилиятини аниқлаш усуллари;
- мустақил равишда соматоскопия ва антропометрияни ўтказишни, мустақил функционал синамаларни ўтказиши ва олинган натижалар асосида юрак-қон томир, нафас ва вегетатив нерв тизимларни функционал ҳолатларини баҳолашни;
- юрак-қон томир, нафас ва вегетатив нерв тизимларнинг берилаётган жисмоний юкларга жавоб реакцияларини аниқлаш ва баҳолашни;
- спорт иншоатларга бўлган санитар-гигиеник талабларни;
- врач-жисмоний тарбия диспасерларининг турлари ва ташқил этилишини;
- жисмоний машқларнинг таъсир механизмини ва самарадорлигини баҳолашни;
- ДЖТни қўллаш учун кўрсатма ва қарши кўрсатмаларни, восита, шакл ва ҳаракат тартиботларини ва унинг вазифаларини аниқ белгилашни;
- даволовчи жисмоний тарбиянинг даволаш усуллари;
- асосий ва ёндош касалликларни ҳисобга олган ҳолда даволовчи гимнастик машқлар комплексини тузишни;
- биринчи тиббий ёрдамни кўрсатишни;
- турли касалликларда физиотерапевтик муолажаларини тўғри тавсия этишни;
- физик муолажаларни оптимал таъсирини аниқлашни;
- беморларни шифомаскани курортларга танлаш ва даволаш масалаларини тўғри ҳал этишни, санатор-курорт карталарни тўлдиришни;
- физиодаволашда ва электрожароҳат ҳолатидаги патологик реакция пайтида биринчи ёрдам кўрсатишни;
- физиотерапевтик муолажаларни ўтказиш тартибини;
- умумий даволаш тадбирлари билан бир қаторда (дори-дармон, парҳез, жарроҳлик операциялари ва ҳ.з.) махсус физиотерапевтик усуллари белгилаш ва дозалашни аниқлашни **билиши ва улардан фойдалана олиши**;
- биологик актив нукталарга таъсир қилиш усуллари;
- дамлама ва қайнатмаларни тайёрлаш;
- жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчиларнинг жисмоний ва функционал ҳолатини баҳолаш усуллари;
- диспансирзация ўтказишда шифокор назоратининг асосий усуллари;

- нафас ва юрак-қон томир тизимларининг организмга таъсир этаётган жисмоний юкламага нисбатан бўладиган жавоб реакциялари;
- жисмоний тарбия билан шуғулланувчиларни тиббий гуруҳларга саралашлар, асосий, тайёрлов ва махсус тиббий гуруҳларида шуғулланиш учун кўрсатма ва қарши кўрсатмалар;
- жисмоний тарбия ва спорт машғулотларида жисмоний машқларнинг самарадорлигини баҳолаш усуллари;
- спорт иншоатларига қўйилган санитар-гигиеник талабларнинг бажарилиши;
- даволовчи жисмоний тарбиянинг умумий асослари ва жисмоний машқларнинг таъсир механизми;
- ДЖТни қўллаш учун кўрсатма ва қарши кўрсатмалар, восита, шакл ва ҳаракат тартиботи ва қўлланилиш эффективлигини баҳолаш;
- турли касалликларни даволашда физиотерапевтик муолажаларни танлашда умумий ва махсус кўрсатма ва моёнеликларга риоя қилиш;
- даволаш муолажалар мажмуасини тузишда асосий ва ёндош касалликларни ҳисобга олиш;
- нормал ва патологик ҳолатларда физик омилларнинг хусусиятларини ва уларнинг организмга таъсир қилиш механизми;
- физиоаппаратларнинг ишлаш принципларини ва техника ҳавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш;
- соғломлаштириш мақсадида физиопрофилактик муолажаларни қўллаш **қўникмаларига эга бўлиши керак**;
- мустақил тиббий хулоса бериш;
- зарурий ҳужжатларни тўғри расмийлаштириш;
- организмнинг жисмоний ривожланганлигини аниқлаш ва баҳолаш;
- организм тизимларининг функционал ҳолатларини аниқлаш ва баҳолаш;
- спорт иншоатлари ва инвентарларига санитар-гигиеник нормативлар;
- врач-педагогик назоратини ташкил қилиш;
- беморларни шифохона ва шифохонадан ташқарида даволашда ДЖТни режалаштириш;
- беморларни шифохона ва шифохонадан ташқарида даволашда физик муолажаларни режалаштириш **малакаларига эга бўлиши керак**.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвийлиги

Халқ тиббиёти, шифокор назорати, даволовчи жисмоний тарбия ва физиотерапия фанлари тиббий-биологик фанлар мажмуасига тааллуқли бўлиб, у VII, VIII, IX ва X семестрларда ўқитилади.

Халқ тиббиёти, шифокор назорати, даволовчи жисмоний тарбия ва физиотерапия фанлари талабаларнинг тиббий биология ва генетика,

биофизика, одам анатомияси, патологик анатомия, нормал ва патологик физиология, биокимё, фармакология, ички касалликлари пропедевтикаси, жисмоний тарбия фанларидан олган билимларига асосланади. Ушбу фан терапия, хирургия, урология, акушерлик-гинекология, неврология, педиатрия ва бошқа клиник йўналишдаги фанларни ўзлаштириш учун асосланади.

Фаннинг илм-фан ва ишлаб чиқаришдаги ўрни

Халқ тиббиёти, шифокор назорати, даволовчи жисмоний тарбия ва физиотерапия фанлари умумий амалиёт шифокорида тиббий билимлар асосини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. У бошқа заминий фанлар билан биргаликда организм тўғрисида яхлит маълумот бериш, шу билан бирга талабада клиник фикр юритишни ривожланишини таъминлайди.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Талабаларнинг фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларида фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни татбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, компьютер дастурлари, электрон материаллар, амалий дарсларда мос равишдаги илғор педагогик технологиялар қўлланилади. Маъруза ва амалий машғулотларда турли метод ва воситалардан, хусусан ақлий ҳужум, балиқ скелети, Қандай ва Венна диаграммалари, кластер, амалий иш ва дидактик ўйинлар, портфолио, кейс-стади, шунингдек, компьютер дастурларидан (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point) интернет тизимларидан фойдаланиш мумкин.

АСОСИЙ ҚИСМ

Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни

Халқ тиббиёти фани асосий вазифалари

Халқ тиббиёти унинг ривожланиш тарихи бугунги кунда замонавий тиббиёт билан ҳам оҳанглиги фалсафий концепциялар аҳамиятини.

Халқ тиббиёти усуллари ва воситаларини қўллаб даволанадиган касалликлар: юрак қон-томир системаси; нафас аъзолари; овқат хазм қилиш аъзолари; асаб системаси; сийдик таносил, тери касалликлари, гинекологик ва эндокрин системаси ва ҳ.к.

Доривор ўсимликларни таъсир механизмлари касалликларга тавсия этиш, йиғиш тартиби ва қайнатма, дамламаларни тайёрлаш йўллари.

Акупрессура, акупунктура ва ёрдамида беморларга муолажа тавсия этиш рефлексотерапиянинг асосларини ва меридианлар таълимотини.

Кириш. Шарқ тиббиётининг тарихи ва ривожланиши фалсафий концепциялари, Ибн Сино таълимоти, ўзига хослиги ва замонавий тиббиётда тўтган ўрни, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар

Дунёда шарқ тиббиётининг тарихи ва ривожланиши, хитой анъанавий тиббиётининг ўзига хослиги қадим тарихга эга бўлган фалсафий концепциялар (Ин-ян, У-син), касалликларни даволашда шарқ табobati воситаларини қўллаш уй шароитида тавсия этишнинг ўзига хослиги маълум бир касалликларда рефлексотерапия, моксатерапия, доривор ўсимликлар қўллаш тавсия этилади. Ибн Синонинг шарқ тиббиётига қўшган хиссаси ва тиб қонунлари. Шарқ тиббиётига кўрсатма ва қарши кўрсатмалар тахлили

Юрак қон-томир касалликларини (артериал гипертензия ва стенокардияда) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Юрак қон-томир касалликларини (артериал гипертензия ва стенокардияда) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда шарқ тиббиёти нуктаи назаридан тавсиялар, фитотерапия, диетотерапия принциплари, шарқ гимнастика усуллари ва уқалаш усулларни қўлланиши.

Нафас олиш тизим касалликларини (Бронхиал астма ва бронхитлар, пневмония ва эмфизема) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Нафас олиш тизими (bronхиал астма ва бронхитлар, пневмония ва эмфизема) касалликларини ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши шарқ тиббиёти нуктаи назаридан тавсиялар, фитотерапия, диагностика ва профилактика усулларни қўлланиши. Тўғри овқатланиш асослари, нафас гимнастика турлари, табиий омиллар, чиниқтириш ва асоратларни олдини олиш усуллари.

Хазм тизими касалликларини (ошқозон ва ўн икки бармоқли ичак яра касалликлари, панкреатит, гастрит, холецистит ва гепатитлар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Хазм тизими касалликларини (ошқозон ва ўн икки бармоқли ичак яра касалликлари, панкреатит, гастрит, холецистит ва гепатитлар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши даволашда шарқ тиббиёти нуктаи назаридан тавсиялар, халқ табobat воситаларини қўллашни ўргатиш. Рационал овқатланиш, фитотерапия, игнарефлексотерапия, табиий омиллар (минерал сувлар куллаш), соғлом турмуш тарзига риоя қилиш.

Периферик асаб касалликлари (остеохондроз, юз нерви неврити ва уч шохли нерв невралгияси) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Периферик асаб касалликларини (остеохондроз, юз нерви неврити ва уч шохли нерв невралгияси) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши даволашда шарқ тиббиёти нуқтаи назаридан тавсиялар. Шарқ тиббиёти турли воситаларни илмга асосланган усуллари.

Сийдик ажратиш тизими касалликларини (Нефрит, пиелонефрит, буйрак санчиғи, цистит ва цисталгиялар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Сийдик ажратиш тизими касалликларини (Нефрит, пиелонефрит, буйрак санчиғи, цистит ва цисталгиялар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши даволашда шарқ тиббиёти нуқтаи назаридан тавсиялар, ўсимликлар, табиий омиллар, гимнастика, уқалаш ва бошқа ноанъанавий усуллар замонавий тиббиётда қўллаш.

Ревматологик касалликларни (Бод касаллиги, ревматоид артритлар, Бехтерев касаллигида, реактив артритлар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Ревматологик касалликларни (Бод касаллиги, ревматоид артритлар, Бехтерев касаллигида, реактив артритлар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши даволашда шарқ тиббиёти нуқтаи назаридан тавсиялар, керакли доривор ўсимликлардан тайёрланган қайнатмалар, тиндирмалар, нуқтали уқалаш, гирудотерапия, рефлексотерапия ва уй шароитида халқ табобат воситаларини қўллашни ўргатиш.

Тери касаллиги ва аллергияк ҳолатларда (псориаз,экзема, дерматитлар полиноз, эшакем, аллергияк тошмалар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Тери касаллиги ва аллергияк ҳолатларда (псориаз, экзема, дерматитлар полиноз, эшакем, аллергияк тошмалар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши даволашда шарқ тиббиёти нуқтаи назаридан тавсиялар, керакли доривор ўсимликлардан тайёрланган

қайнатмалар, тиндирмалар, нуқтали уқалаш, рефлексотерапия, тўғри овқатланиш ва уй шароитида халқ табобат воситаларини қўллашни ўргатиш.

Гинекологик ва эндокрин касалликларда (аднексит, эндометрит, оғриқли хайз, бепуштлик ва қандли диабет, қалқонсимон без касалликлари) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш

Гинекологик ва эндокрин касалликларда (аднексит, эндометрит, оғриқли хайз, бепуштлик ва қандли диабет, қалқонсимон без касалликлари) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволашда касалликнинг кечиши даволашда шарқ тиббиёти нуқтаи назаридан тавсиялар. Шарқ тиббиётида репродуктив саломатлигини тиклаш, сақлаш ва мустахкамлаш шакллар ва воситалар.

Шифокор назоратни асосий вазифалари. Спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланувчи аҳолининг ҳар хил тоифаларини тиббий текшируви. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда жисмоний тарбия ва спортнинг аҳамияти

Спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланувчиларда ўтказиладиган тиббий кўрик турлари билан таништириш. Тиббий гуруҳлар ҳақида тушунча бериш. Спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланувчиларнинг анамнезини йиғиш хусусиятлари. Шифокор назорати картаси билан таништириш ва расмийлаштиришни ўргатиш.

Жисмоний ривожланиш. Жисмоний ривожланганликни антропометрия ва соматоскопия маълумотларига асосланиб аниқлаш ва баҳолаш усуллари. Тана тузилиши типлари. Спорт турига саралаш

Жисмоний ривожланганликнинг антропометрик кўрсаткичларини олиш: спирометрия, динамометрия, тана узунлиги ва вазнини, кўкрак қафасининг айланасини ўлчаш. Соматоскопия кўрсаткичларини олиш: умуртқа поғанаси, қади-қомат, кўкрак қафаси, оёқ, товон шакллари. Калиперометрия, тана вазнининг таркибий қисмини аниқлаш (суяк, мушак ва ёғ). Жисмоний ривожланганликнинг баҳолаш усуллари, яъни стандартлар, корреляция ва индекслар ҳақида тушунча бериш. Антропометрик кўрсаткичларини индекслар усули ёрдамида Кетле, Пинье, фарқлаш, ҳаётий, Эрисман ва бошқалар, қўл ва бел мушаклари индексларини аниқлаш. Олинган натижаларга асосланган ҳолда жисмоний ривожланишни аниқлаш.

Шифокор назоратида қўлланадиган функционал синамалар. Юрак-қон томир тизимини функционал синамалари

Мунтазам шуғулланиш натижасида организмда кузатиладиган функционал ва морфологик ўзгаришлар. Юрак-қон томир тизимини функционал ҳолатини баҳолашда қўлланадиган синамалар (Летунов ва Мартине синамаларининг ўтказилиш тартиби). Синамасини ўтказиш ва олинган натижалар асосида юрак-қон томир тизимини функционал ҳолатини баҳолаш, жавоб реакция типларини аниқлаш.

Нафас ва вегетатив нерв тизимларни функционал синамалари

Нафас тизимини функционал ҳолатини баҳолашда қўлланадиган Штанге, Генч, Серкин ва Розентал синамаларининг ўтказилиш тартиби ва олинган натижаларни баҳолаш. Вегетатив нерв тизимини функционал ҳолатини баҳолашда қўлланадиган ортостатик ва клиноортостатик синамаларининг ўтказилиш тартиби ва олинган натижаларни баҳолаш. Талабалар билан Штанге, Генче ва Серкин синамаларини ўтказиш ва олинган натижаларни баҳолаш.

Ташқи нафас олишнинг функционал ҳолатини аниқлаш

Ташқи нафас олишнинг очиқ ва ёпиқ усуллари ҳақида тушунча. Текширилиувчидан олинган спирограмма ёрдамида нафаснинг минутлик ҳажмини, нафас олиш сонини, нафаснинг ўртача чуқурлигини, ўпканинг тириклик сиғимини, ўпканинг максимал вентилизациясини, максимал нафас олганда нафаслар сони ва чуқурлигини, резерв нафасни, кислород ҳажмини аниқлаш. Спортчиларда ва жисмоний тарбия билан шуғунланганлардан олинган спирограммаларни баҳолаш.

Жисмоний иш бажариш қобилиятини аниқлаш усуллари

Организмнинг иш бажариш қобилияти ва тикланиш жараёнлари ҳақида тушунча. Гарвард степ-тестининг ўтказилиш тартиби, олинган натижалар асосида Гарвард степ-тести индексини аниқлаш, олинган индекс орқали организмнинг тикланиш жараёнларини баҳолаш. Спортчиларда ва жисмоний тарбия билан шуғунланганлар билан Гарвард степ-тестини ўтказиш ва олинган натижаларни баҳолаш.

PWC-170 субмаксимал тести ҳақида тушунча, ўтказилиш тартиби, олинган натижалар асосида организмнинг иш бажариш қобилиятини баҳолаш. Кислороднинг максимал истеъмол қилинишини аниқловчи

бевосита ва билвосита усуллари ҳақида тушунча. Спортчиларда жисмоний тарбия билан шуғунланганлар билан PWC-170 субмаксимал тестини велоэргометрда бажариш ва олинган натижаларни баҳолаш.

Шифокор- педагогик назорати. Жисмоний юкламалар таъсирида шуғулланувчи организмда бўладиган ўзгаришлар. Спорт билан шуғулланувчиларда кўп учрайдиган патологик ҳолатлар. Спорт жароҳати профилактикаси

Шифокор-педагогик назоратининг вазифалари, назорат усуллари, яъни ўтказилаётган машғулот зичлиги (хронометраж), физиологик эгри чизиги ва ҳолсизланиш даражаларини аниқлаш билан таништириш. Жисмоний тарбия машғулотларида шифокор-педагогик назоратининг усуллари кўллаш ва олинган натижаларини баҳолаш.

Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишга кўрсатма ва қарши кўрсатмалар. Врач-жисмоний тарбия диспансери. Врач назорати картасини расмийлаштириш ва ҳимоя қилиш

Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишга кўрсатма ва қарши кўрсатмалар ҳақида тушунча бериш. Тиббий гуруҳлар ва уларга саралаш принциплари. Врач-жисмоний тарбия диспансери турлари, тузилиши, фаолияти. Талабалар томонидан шифокор назорати картасини расмийлаштириш ва уни ҳимоя қилиш.

Даволовчи жисмоний тарбиянинг умумий асослари – воситалари, шакллари. Ҳаракат тартиботлари

Даволовчи жисмоний тарбия, даволаш усуллари ва жисмоний машқларнинг асосий таъсир қилиш механизмлари ҳақида тушунча бериш. Даволовчи жисмоний тарбиянинг воситалари, уларнинг турлари ва қўлланилиш мақсадлари. Шакллари, уларнинг гуруҳлари, турлари ва қўлланилиш мақсадлари. Беморларга даволаш жисмоний тарбия тавсия этилганда қўлланиладиган ҳаракат тартиботлари, уларнинг вазифалари ҳақида тушунча бериш.

Даволовчи жисмоний тарбиянинг умумий асослари

ДЖТ воситалари ва шакллари. Ҳаракат тартиботлари. ДЖТ муолажасини белгилаш принциплари. ДЖТ бўйича ҳужжатларни расмийлаштириш. Беморларни даволашда қўлланиладиган ДЖТ усулларининг самарадорлигини аниқлаш. Массаж турлари ҳақида тушунча

бериш. Шифобахш массажда қўлланиладиган асосий усуллари, таъсир механизмларига тушунча. Шифобахш массажни талабаларда кўрсатиш.

Юрак қон-томир тизимини касалликларида ДЖТни қўллаш

Ўткир миокард инфаркти, гипертоник касаллиги, юрак ишемик касаллиги, нейроциркулятор дистонияси касалликларида ДЖТнинг даволаш усуллари танлаш ва асослаш, восита, шакл ва ҳаракат тартиботларини тўғри танлаш ва қўллаш, даволаш самарадорлигини аниқлаш.

Нафас тизими касалликларида ДЖТни қўллаш

Зотилжам, плеврит, сурункали бронхит, ўпка эмфиземаси, бронхиал астма, бронхоэктатик касалликларида ДЖТни қўллаш мақсади ва вазифалари, хусусияти, даволаш усуллари танлаш ва асослаш, даволаш гимнастика комплексини тузиш ва самарадорлигини аниқлаш. Мустақил бемор қабул қилиш.

Овқат-ҳазм қилиш ва ҳаракат-таянч тизимлари ва модда алмашинуви касалликларида ДЖТни қўллаш

Ошқозон-ичак яраси, гастрит, колит, энтерит, энтероколит, спланхноптоз, гепатит, холецистит, артрит, полиартрит, артроз, қандли диабет, семириш, подагра касалликларида ДЖТни қўллаш мақсади ва вазифалари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар. ДЖТнинг даволаш усуллари танлаш ва асослаш, даволаш гимнастика комплексини тузиш. Ҳужжатларни тўлдириш, поликлиникада бемор қабул қилиш.

Жарроҳлик касалликларда ва травматология-ортопедияда ДЖТни қўллаш

Томир касалликлари, кўкрак қафаси ва қорин бўшлиғида ўтказиладиган операциядан олдинги ва кейинги даврлари, қўл-оёқ суяклари ва умуртқа поганаси синишларининг иммобилизация ва ундан кейинги даврлари, ясси товон, остеохондроз, сколиоз, кифоз, лордоз касалликларида ДЖТни қўллаш мақсади ва вазифалари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар. ДЖТнинг даволаш усуллари танлаш ва асослаш, даволаш гимнастика комплексини тузиш. Ҳужжатларни тўлдириш, поликлиникада бемор қабул қилиш.

Акушерликда ва гинекологик касалликларида ва педиатрияда ДЖТни қўллаш

Ҳомиладорликда, туғиш ва туғишдан кейинги даврларда жисмоний машқларни қўллаш. Гинекологик касалликларда (яллиғланиш, птоз ва аномалия) ва операцияларда ДЖТни қўллаш хусусиятлари. Даволаш гимнастика комплексини тузиш. Машғулотлар самарадорлигини аниқлаш. Аёллар маслаҳатларида беморларни қабул қилиш.

Педиатриядаги ДЖТнинг ўзига хос хусусиятлари. Болаларни чиниқтиришда даволаш гимнастikasi усуллари қўллаш. Кўрсатма ва қарши кўрсатмалар.

Доимий ва импульс токлари билан даволаш

Физиотерпевтик гальванизация, электрофорез, электрүйку, диадинамотерапия, амплипульстерапия, электродиагностика, электростимуляция муолажаларида қўлланиладиган физик омилларга таъсиф, таъсир механизми, физиологик таъсири, қўлланиладиган физик аппараталар, усуллари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар, меъёрлаш.

Ўзгарувчан ток ва электромагнит майдонлари билан даволаш

Физиотерпевтик ультраюқори частотали ва ўта юқори частотали терапия, франклизация, дарсонвализация, индуктотермия, магнитотерапия муолажаларида қўлланиладиган физик омилларга таъсиф, таъсир механизми, физиологик таъсири, қўлланиладиган физик аппараталар, усуллари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар, меъёрлаш.

Ёруғлик билан даволаш. Аэрозолтерапия. Аэроионотерапия. Гидроаэроионотерапия. Ультратовуш билан даволаш. Баротерапия

Физиотерпевтик муолажаларда қўлланиладиган физик омилларга таъсиф, таъсир механизми, физиологик таъсири, қўлланиладиган физик аппараталар, усуллари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар, меъёрлаш.

Сув ва иссиқлик билан даволаш. Курортлар

Физиотерпевтик муолажаларда қўлланиладиган физик омилларга таъсиф, таъсир механизми, физиологик таъсири, қўлланиладиган физик аппараталар, усуллари, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар, дозировкаси. Курорт омиллари ва турлари. Ўзбекистон курортлари. Санатор-курортга борувчиларни саралаш. Санатор-курорт картасини расмийлаштириш, ҳимоялаш.

Амалий машғулотларнинг тахминий рўйхати

- Кириш. Шарқ тиббиётининг тарихи ва ривожланиши фалсафий концепциялари, Ибн Сино таълимоти, ўзига хослиги ва замонавий тиббиётда тўтган ўрни, кўрсатма ва қарши кўрсатмалар.
- Юрак қон-томир касалликларини (артериал гипертензия ва стенокардияда) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Нафас олиш тизим касалликларини (бронхиал астма ва бронхитлар, пневмония ва эмфизема) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш.
- Хазм тизими касалликларини (ошқозон ва ўн икки бармоқли ичак яра касалликлари, панкреатит, гастрит, холецистит ва гепатитлар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Периферик асаб касалликлари (остеохондроз, юз нерви неврити ва уч шохли нерв невралгияси) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Сийдик ажратиш тизими касалликларини (нефрит, пиелонефрит, буйрак санчиғи, цистит ва цисталгиялар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Ревматологик касалликларни (бод касаллиги, ревматоид артритлар, Бехтерев касаллигида, реактив артритлар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Тери касаллиги ва аллергия холатларда (псориаз, экзема, дерматитлар полиноз, эшакем, аллергия тошмалар) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Гинекологик ва эндокрин касалликларда (аднексит, эндометрит, оғриқли хайз,бепуштлиқ ва қандли диабет, қалқонсимон без касалликлари) ноанъанавий тиббиёт усуллари билан даволаш
- Спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланувчи аҳолининг ҳар хил тоифаларини тиббий текшириш. Шифокор назорати картаси билан таништириш.
- Жисмоний ривожланганликни антропометрия ва соматоскопия маълумотларига асосланиб аниқлаш ва баҳолаш усуллари.
- ***Шифокор назоратида қўлланиладиган функционал синамалар. Юрак-қонтомир тизимиининг функционал синамалари.***
- Нафас ва вегетатив нерв тизимларининг функционал синамалари.
- Ташқи нафас олишнинг функционал ҳолатини аниқлаш.
- Жисмоний иш бажариш қобилиятини аниқлаш. Гарвард степ-тести.

- ***PWC-170 субмаксимал тести. Кислороднинг максимал истеъмол қилинишини аниқлаш.***
- ***Жисмоний тарбия ва спорт билан шугулланиш шароитларини санитар-гигиеник кузатиш.***
- ***Шифокор - педагогик назорат.***
- ***Жисмоний тарбия ва спорт билан шугулланишга кўрсатма ва қарши кўрсатмалар. Врач-жисмоний тарбия диспансери.***
- ***Даволаш жисмоний тарбиянинг умумий асослари – воситалари, шакллари. Ҳаракат тартиботлари.***
- ***Массаж турлари.***
- Юрак қон-томир системаси касалликларида ДЖТни қўллаш (ўткир миокард инфаркти, гипертоник касаллиги, юрак ишемик касаллиги, нейроциркулятор дистонияси).
- Нафас тизимини касалликларида ДЖТни қўллаш (зотилжам, плеврит, сурункали бронхит, ўпка эмфиземаси, бронхиал астма, бронхоэктатик касаллиги).
- Ҳазм ва ҳаракат-таянч системалари ва модда алмашинуви касалликларида ДЖТни қўллаш (ошқозон-ичак яраси, гастрит, колит, энтерит, энтероколит, спланхноптоз, гепатит, холецистит, артрит, полиартрит, артроз, қандли диабет, семириш, подагра).
- Жарроҳлик касалликларда ва травматология-ортопедияда ДЖТни қўллаш (томир касалликлари, кўкрак қафаси ва қорин бўшлиғида ўтказиладиган операциядан олдинги ва кейинги даврлари, қўл-оёқ суяклари ва умуртқа поғанаси синишларининг иммобилизация ва ундан кейинги даврлари, ясси товон, остеохондроз, сколиоз, кифоз, лордоз).
- Акушерликда ва гинекологик касалликларида ва педиатрияда ДЖТни қўллаш.
- Доимий ва импульсли тоқлар билан даволаш.
- Ўзгарувчан тоқ ва электромагнит майдонлари билан даволаш.
- Ёруғлик билан даволаш.
- Аэрозолтерапия. Аэроионотерапия. Гидроаэроионотерапия.
- Ультратовуш билан даволаш.
- Баротерапия.
- Сув ва иссиқлик билан даволаш.
- Курортлар.

Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича тавсиялар

Амалий машғулотларини ташкил этиш юзасидан кафедра томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза

